

ERDOĞ'AN YILDIRIM

# BARCHASI SENGGA ATALGAN

Ertanggi kuningga yangi imkoniyatlar eshigini och.  
Yangilan va axvolingni ijobiy tomonga o'zgartir.



**Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

**Ulgari berilmalar miqdori \_\_\_\_\_**

--	--



ERDOG'AN YILDIRIM

*Barchasi Senga  
Atalgan!*



**BEST BOOK**  
NASHR

**Toshkent - 2023**

**UO'K: 159.9**

**KBK: 88.5**

**Y 28**

**Erdog'an Yildirim**

Barchasi senga atalgan [Matn] / Erdog'an Yildirim - Toshkent:  
BEST-BOOK, 2023 - 176 b.

2023/24 - 166

ISBN 978-9943-8604-8-3

© Erdog'an Yildirim

© BEST BOOK, 2023

*Barchasi Senga  
Atalgan!*

ERDOG'AN YILDIRIM



*O'zingni qo'lg'a ol.*

*Hayot suv kabi shiddat bilan oqyapti, vaqt o'tib  
bormoqda. Atrofga boq! Umring tugab bormoqda.*


*Unutma!*

*Hayot seni kutmaydi. Odamlar seni ko'rmaydilar.  
Istaganingcha ko'z yosh to'k, ammo ko'z yoshlaring hech  
narsani hal qilmaydi, faqat seni bo'g'ib qo'yadi.*

*Ishon, Sen bunga loyiq emassan.*

*Burchakda yashirinish sening dardingni  
yengillashtirmaydi.*

*O'zingni angla! Hayot bilan yasha!*



Hayotimda meni xafa qilganlar ko'p bo'lgan. Ammo ularning har biri ortda qoldi. O'zimni anglab o'tmishdan voz kechdim, bunga sabab barcha ko'ngilsizliklar ahamiyatsiz ekanini, hayot qiyinchiliklar bilan sinab yaxshi kunlarni, albatta, nasib qilishini anglab yetdim. Masalan, avval ko'p narsa haqida qayg'urardim, endi esa juda oz o'ylayman. Chunki men o'z qadrimni bilib, o'zligimni angladim.

Kunduzlarimni tunga, tunlarimni esa kunduzlarga almashtirib qo'yganimni tushunib yetdim. Ammo hozir barchasi o'zgacha, barchasiga chek qo'yildi.

Xo'sh, keyin nima bo'ldi deysizmi? Men baxtli, quvnoq, hayotni sevuvchi insonga aylandim.

Chunki men o'zligimni angladim.

Aytmoqchimanki:

Ehtimol, hayotda sen qilmasliging kerak bo'lgan ba'zi xatolarga yo'l qo'ygansan. Muhim bo'lmagan narsani haddan tashqari qadrlab, sevmasliging kerak bo'lgan insonni sevib, xafa bo'lib, ko'z yoshlaring ummoniga ko'milgansan. Lekin barchasi tugadi, o'tmishing bilan yashama, afsus va nadomat orasida qolib ketma.

O'zingni qiynab, siqilib, o'tmish bilan yashab, ke-lajagingni barbod qilma. Bu haqda o'ylab o'zingni ado qilgandan ko'ra, «barchasi tugadi» deb davom etish ming marta afzaldir.

Senda ham xuddi men kabi holat bo'ladi, ammo ba'zi narsalar uchun vaqt kerak. Unuta olmayman deb



o'ylagan tuyg'ularing vaqti kelib unutiladi. Unuta olmaganlaringni vaqti kelib, albatta, unutasan.

Ishon! Senda ham mendagi holat bo'ladi. Unutolmaydiganlarni unutasan, qiyin damlar o'rnini go'zal kunlar egallaydi. Shunda ortga boqqaningda, o'tmishni eslab jilmayasan.

**Chunki nafaqat noxushlik, balki yaxshi damlar ham ketma-ket keladi. Har safar yomonlikni boshdan kechirganingda bilki, bundan keyin, albatta, yaxshilik bo'ladi.**


**Barchasi Senga atalgan!**

*Ushbu satrlar – yerning qay nuqtasidan bo‘lishingizdan qat’i nazar, sahifalarni sinchiqlab o‘qigan har biringizga tegishlidir.*



*Bir qush misoli, osmonlarda  
uchishni istar.  
Yolg'ondan, nayranglardan,  
sarg'aygan soxta yuzlardan,  
Tilka-pora yuraqlar va vayron bo'lgan  
shaharlardan qanot qoqib,  
uchib ketishni  
istardi.*

*Sevgi misoli dengiz.  
Qalb sevgi dengizida sohildir.  
Oshiq qalb sohildagi kema misolidir.  
Kema ustuni bu ishonch,  
yelknlari sadoqat, manzili hurmatdir.*



1

**Haqiqiy muhabbatga sabr-toqat, odob va duo bilan erishish mumkinligini bilishing lozim. Zotan, oshiq bo'lgan qalbga duo o'qimay, sabr va odob bilan kutmay, qalbga ozor bermay, ranjitmay erishib bo'ladimi? Va bu muhabbatning oxiri abadiy dunyoga yetaklaydi.**

\*

Muhabbat bu qalbga ozor bermay sevishdir. Muhabbat bu yurakdagi og'riqdir.

Azaldan muhabbat baytlarda ta'riflangan va uning isi dunyoni tutgan. Tabassum muhabbatning ziynati bo'lgan. Hozirda esa muhabbatning gavharidir. Muhabbat ko'ngilni sevgi bilan hamohangligidir. Har safar oftob nurlari uning oltin tUSDagi sochlarini zumrad bilan silasa, ular jilolanadi.

Zotan, sevgi quyoshi bu sabr qilmoqlikdir. Muhabbat o'z fursatida keladi. Muhabbat jalb qilish bilan emas, duo bilan boshlanadi. Muhabbat noz-karashmalar bilan yor visoliga yetishishni anglatmaydi. Holbuki, bu zinodir va zino Islom dinida ta'qiqlangan, ya'ni gunohdir.

Muhabbat bu odobdir. Muhabbatning mazmuni bu foniy dunyodagi sayohat va boqiy dunyodagi abadiy sevgidir. Haqiqiy muhabbat bu oxiratga olingan chipta misolidir.

Muhabbat bu sajdaga bosh qo'yib ibodat qilishdir. Muhabbatni qalbida Islom dini bo'lganlardan izla. Muhabbatni noz-karashmali, surmali ko'zlardan emas, oxiratdan qo'rqqan ko'zlardan izla.

Muhabbatni maqsadi mol-mulk bo'lgan ayoldan emas, balki qalbi iymonga to'la ayoldan izla. Muhabbatni hayotdan emas, qur'ondan o'rgan.



*„O'tkinchi dunyoga emas, balki abadiy dunyo va qur'on  
oyatlariga oshiq bo'l“.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN!**

## GO'ZAL QALB SOHIBINI SEVI

*Kel, menga sevgini anglat.  
Nafsingni qo'shmasdan, tuyg'ularingni  
so'zlaring bilan anglat. Gul va hasharot mehri,  
romantikadan holi anglat. Pul, mol-mulk,  
chiroydandan holi anglat. Anglata olasanmi?*

\*

Sevgin va hech qachon sevgisiz qolma, biroq sevgini zulmatdan izlama. Zulmatda yashama, chunki sevgi qadrli pok tuyg'udir. Ko'nglingni begonalarga ochma va tuyg'ularingni xorlatib qo'yma.

Sevish go'zaldir, sevilish o'zgachadir. Sevgin va sevilgin, ammo haromdan yiroq sevgin. Halol yo'l orqali sevgiga erishgin va bu sevgi ko'ngilga xush yoqadi. Harom ko'ngilni cho'l kabi quritadi. Sevgin va sevilgin, bu go'zal tuyg'uni seni qadrlaydigan insondangina izla. Javobsiz sevgiga talpinib umringni xazon qilma. Tuyg'ularingni xorlatib qo'yma. Sevgi seni o'zing kabi sevganlaridagina go'zaldir.

Qalbing uchun emas, balki Rabbing uchun sev va sevgini romantik o'yinlarga qurbon qilmasdan sev. Zulmatda, osmonni bezab turgan oy va yulduzlar soyasida sham ostida kechki ovqatlarni orzu qilmasdan sev.

Sevgi bu ko'ngilxushlik emas, balki zulmat qorong'isida Rabbingning huzurida tahajjud namozini o'qib muhabbatingni izhor qilishdir.

Shunday sevginki, masofalar ortda qolsin.

Shunday sevginki, olis yo'llar yaqindek bo'lsin.

To'siqlarni yengib, chin yurakdan sev. Manfaat uchun emas, ko'ngil uchun sev. Sevgidan quvon va Alloh roziligi uchun sev.

Go'zal qalb sohibini sev. Nozli qarashlarga qaramay, so'zlarning ohangiga aldanmasdan sev. Molmulki va boyligiga ishonib sevma, chunki har bir yonayotgan nur so'nadi. Har bir yolg'on vaqti kelib fosh bo'ladi. Har bir narsaning xotimasi – oxiri bor, lekin qalbi go'zal insonning sevgisi abadiydir.

Qalbi pok, nigohi pardali, odob-axloqli ayol yoki erkakni sev, chunki ularning duosi, ro'stgoy nigohlari, qalbining nidosi va so'zlarining qiymati o'zgachadir.

Va bularni hech unutma!

Sevgi she'rga o'xshaydi. Yurak, bu sevgining qulflangan, aniq sahifasidir. Haqiqiy yurak esa har bir se-vishni sevgi deb hisoblamaydi.

Chin sevgini anglamay, qalbdan joy olgan har bir izhorni nafislik deb hisoblash noo'rindir. Zarracha go'zal sevgan ko'ngil o'zini sira fosh qilmaydi, chunki yurakning pardasi nomusdir. Ko'ngil har kelib-ketgan-ga ochilmaydi. Ko'ngil duogo'y qalbli, nigohi pardali, so'zlari yolg'ondan yiroq qiymatga ega insonga ochish-ga arziydigan bebaho qasrdir.

**Avval ruhing cho'kadi.**

**Yuraging xijil bo'lib qalbing noziklashadi,  
ko'zlaring pardalanadi. Yagona to'g'ri deb  
hisoblagan yo'ling - xayoling chalkashadi va bu  
halol, yoqimli sevgidir.**

**Harom esa gunohdir.**



2

**Do'stlaring hayotingda gul misolidir,  
bu gul o'z ifori va go'zalligi bilan hayotingni  
zavqli va sermazmun qiladi.**

\*

Bir do'sting bo'lsin.

Yagona, biroq senga sodiq, yaxshi-yomon kuningda  
yolg'izlatmaydigan sirdosh bo'lsin. G'am, qayg'uli kun-  
laringda ko'z yoshingni qalbi bilan davolaydigan  
bo'lsin.

Bir do'sting bo'lsin.

Yagona, biroq samimiy bo'lsin. Quvonganingda ta-  
assurotlaringni bo'lishish mumkin bo'lgan insondan  
biri bo'lsin. Baxtingdan ko'zlaring quyosh kabi porlab  
turganda, quvonchdan oy kabi porlasin.

Bir do'sting bo'lsin.

Yagona, biroq dardingga malham bo'lsin. Yiqilga-  
ningda turg'izadigan, yaralanganingda malham bo'la  
oladiganlardan bo'lsin.

Yagona bo'lsin, biroq ishonchli bo'lsin.



*Senga do'st bo'lmaganlarga aslo qalbingni ochma!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## DO'ST BU QALBNING OYNASIDIR

*Do'st bu kulishlari zavqqa to'la, quvonchingga quvonch qo'shadigan, o'zini unutilib senga dalda bo'ladigan, sirlaringga va hayollaringga sherik bo'lib, ko'z yoshlaringni qalbi bilan davolaydigan, yaxshi-yomon kunlaringda hamisha yoningda turadigan va seni sen kabi tushunadigan, qalbing oynasi bo'lgan insondir.*

\*

Do'st degani qo'ng'iroq qilganingda kelmasa, har safar yo'qlab borsang xohlaganida chiqsa, manfaatlari tugagandan so'ng sendan uzoqlashsa, yordamga muhtoj bo'lganida seni izlasa va senga kerak bo'lganda seni rad etsa, og'ir damda bosh qo'yish uchun yelka qidirayotgan bo'lsa, lekin sen g'amga botganingda seni qo'llab-quvvatlamasa, o'zi haqida o'ylasa va senga ahamiyat bermasa, u senga do'st emas.

Kech bo'lmasdan o'zingni tut. Ular ko'rishni xohlagan emas, balki o'zing istagan inson bo'l. Ularni senga boy bo'lgan davringda munosabatda bo'lgandek muomala qilishlariga izn berma. Bu kabi insonlarni hayotingga kiritma. Hayotingga o'rinsiz bostirib kirib, yuringingni qayg'uga soluvchilar, yuzingga kulib, orqangdan pichoq uruvchilar, o'z foydasi uchun yoningda turadigan va qiyin kunlarda seni tark etuvchilarni birma-bir o'zingdan yiroqlashtir.

Qiyin damlaringda tashlab ketadigan, jarohatla-

ringni tirnab, fikringni inobatga olmay bezor qiladiganlar, har fursatda seni sotadigan, xayolingdagi bo'shliqlarni to'ldirmay, senga choh qazib, seni ranjitadiganlarni o'zingdan uzoqlashtir. Hamisha atrofingga senga foydali bo'lgan odamlarni to'pla. Har qanday holatda seni qo'llaydigan, nima bo'lishidan qat'i nazar tashlab ketmaydigan insonlarga senga foydalidir.

**Qadringni bil!**

Zero, so'zi va amali hamohang bo'lganlar yaxshi insonlardir.

Bunday insonlardan zarar kutma, chunki ular hayotingni bamisoli gullagan bog' kabi bezatadi.

Va'dasida turmaydigan xasis va har bir xatti-harakatingni kuzatib tanbeh beradigan insonlardan uzoq yur, chunki bundaylar umidsizlik keltiradi. Bunday insonlar hayotingni cho'l kabi jonsizlantiradi.

**Buni hech unutm!**

Barchani xursand qilishga harakat qilayotganda o'zingni ham unutm. Barchani foydasi uchun ish qilayotganingda o'zingning foydangni ham esdan chiqarma. Hamma uchun vaqt ajratar ekansan, o'zing uchun ham vaqting bo'lsin. O'zingni qadrla va sev. O'zingni biroz xursand qil, tingla. Muvozanatni to'g'ri saqlay olgin.

**Do'st achitib gapiradi.**

**Do'st yomon kuningda seni qo'llab-quvvatlaydi.**

**Chin do'st baxtli oningda sen kabi sevinadi.**

**Ortingdan yomon gapirmaydi, choh qazimaydi, qattiq gapirsang ranjimaydi. Haqiqiy do'st har kuni yoningda bo'lmasligi mumkin, ammo og'ir damlarda seni yolg'iz qoldirmaydi.**

3

**„Keragicha ishon. Oz ham emas, ko'p ham emas.  
Chunki ishonchsizlik muammo, haddan ortiq  
ishonish esa ko'ngil qolishiga sabab bo'ladi,,**

\*

Haddan tashqari e'tiborli va juda bee'tibor ham bo'lma.

Insonlarga juda ishonib yuborma.

Sen ishongan insonlar kun kelib ishonchingni  
suiiste'mol qilsalar, ulardan ko'ngling qolib  
azoblanasan.

Lekin qalbingda, ongingda, so'zlaringda va  
qarashlaringda ishonchsizlikning baland devorla-  
rini qurma. Qanchalik ishonmasang – hayotingni  
shuncha boy berasan. Ishonchsizlik natijasida  
yolg'iz qolishing mumkin.

Me'yorni bil!

Shunda hayotda qiyin ahvolga tushib qolmaysan  
to'g'ri yo'ldan borasan.



*Insonlarning odamiyliklarini yodda saqlab, ularga  
ishon!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **„U BUNDAY QILA OLMAS“, DEMAI**

*Aslo qayg'uga botma.*

*Shu bilan birga hayotga yengil ham boqma.  
Odamlarga keragidan ortiq ham ishonma, lekin  
ishonchsiz ham bo'lma. Sevish va sevilishdan  
shubhalanib, qo'rqib va hayratlanib qolma. Hayotga  
pozitiv boq, biroq ko'ngilsizliklarga e'tiborsiz bo'lma.  
Narsa va hodisalar haqida ko'p o'ylamay, o'zing  
uchun kerakli bo'lganlarini tanla va kelajaging uchun  
bugundan qayg'ur.*

**\***

Ishonasan.

Hayotning iztiroblarini, insonlarning xiyonatini tez unutib yuborishingga ishonasan. Tanlagan yo'ling xatarli va tahlikali ekanligiga ishonasan.

Kuni kelib, haqiqatni yuzingga sovuq shamol kabi urilishiga ishonasan.

Aynan shu daqiqada uyg'onasan. Ishonib katta xato qilganingga, yolg'onga aldanib qolganingga amin bo'lasan. So'ngra dunyong qulab, fikrlaring tarqab, qalbing oyna kabi parchalanib ketadi. Ko'zlarindingdan yosh oqib yuzingni qayg'u qoplaydi, chunki ishonding, ammo aldanding.

Bilaman, yanglishmaganingga amin bo'lishni istab to'g'ri insonni topishni istaysan.

Tushunaman, yolg'onlari bilan seni charchatmaydigan insonga suyanishni istaysan.

Haqsan, Sendan hech narsa talab qilmaydigan insonni kashf etmoqchisan.

Fikrlayapman, butun qalbing bilan ishonish mumkin bo'lgan insonni qidirypasan.

Bilaman, chunki hayotda hikoyalar bir-biriga juda o'xshash. Bunda faqat joy, zamon va insonlar o'zgaradi. Sen yagona emassan, Sen kabi o'ylaydigan, his qiladigan, Sen kabi ko'rinib va ko'radiganlar ko'p. Sen kabi sevgi tuzog'iga ilinib, ishonchni yo'qotgan insonlar qancha. Sen yagona emassan, chunki sevgi ba'zilarga ko'ngil ishi emas balki vaqtichog'likdir.

Bilasan va xabardorsan. Garchi qalbingdan joy egallagan bo'lsa-da, ishonmaydigan insonni sevishni bas qil. O'zingdan nafratlanasan, biroq ko'z yumib yana sevishda davom etasan. Bu sevgiga chek qo'yishni istaysan, ammo bajara olmaysan.

Ishonish uchun bir sabab qidirasan, lekin topa olmaysan. Ahmoqlik qilayotganingni bilasan, ammo to'xtay olmaysan. Shuni unutma: Hayoting davomida aslo oxiri noma'lum bo'lgan yo'lga chiqma va ishonmagan insoningga ko'ngil qo'yma. Bularni aslo unutma! Yo'qsa ming pushaymon bo'lasan.

Unutma!

«U bunday qilmaydi», dema.

Vaqt kelib u sen qilmaydi degan ishni qiladi. «U hech qachon mening ishonchimni poymol qilmaydi», dema. Kun kelib hafsalang pir bo'ladi. «U ketadi, bu ketadi, lekin u hech qachon tark etmaydi», dema. Bir kun kelib u hatto orqaga qaramasdan sendan ketadi.

Mahzun bo'lma! Odamlar ham, hayot ham shunday.  
Sen hayotni ham, odamlarni ham o'zgartira olmaysan.  
Lekin o'z nuqtayi nazaringni o'zgartirishing mumkin.

Unutma! O'zing o'zgarsang, hayoting ham yaxshilanib boradi!


**Aslingdan voz kechma. Hayot ham, odamlar  
bilan munosabat ham oson emas.  
Ehtimol, ishonch deb nomlangan qimmatbaho  
tuyg'u noyobdir, ammo qiymatini yo'qotmagan.  
Ko'nglingni cho'ktirib hayotdan g'azablanma.  
Odamlarga o'ch olmoqchi bo'lgandek boqma.  
Me'yorni bilib, o'zingga ishonib hayotni  
anglab yasha.**

*Panoh so'rayman!  
Qalblarni azob chekishidan,  
insonlarni yomonligidan,  
Dunyo g'amlaridan,  
Nafsning quli bo'lishidan,  
Ozor berguvchi tillardan,  
Panoh so'rayman!  
Xush kelding!  
Qalbi quyoshdek porloq,  
Fikri ravshan inson Xush kelding!*





*Kuchli bo'!*  
*Hayotni yaxshi va yomon taraflarini bil.*  
*Dono bo'! Xatolaringdan saboq ol.*  
*Xotirjam bo'! Nafratlanma.*  
*Omadli bo'! Voz kechmasdan harakat qil.*  
*XushchIQchIQ bo'! Qayg'ularni unut.*  
*Qadrli bo'l, Sening qadringga yetganlarni qadrta!*



4

**Gina saqlama! Yuraging tilka pora bo'lib,  
fikrlaring xiralashadi. Avf et, ko'ngling yorishadi.  
Unutish osonroqdir. Qayg'uga botma, qayg'udan  
sochlaringga oq, yuzingga ajinlar tushar.**

**Hayotdan zavq ol – yuzing kulib, hayoting rang-  
barang tusga kirar. Noumid bo'lma – pozitiv bo'l,  
hayotga bo'lgan ishtiyoqing oshib, kelajakka umid  
uyg'onadi.**

\*

Seni ranjitganlarni, ko'z yoshlaring to'kilishiga  
sababchi bo'lganlarni, senga umid berib, so'ng tashlab  
ketganlarni baxtli deb hisoblab o'zingni ranjitma. Kuni  
kelib barchasi iziga tushadi, chunki adolat bor.

Hamma narsaning o'z vaqti-soati bor.

Yaralangan ko'ngil tinchlanmas.

Seni ranjitganlarning huzuri abadiy emas.

Sen hech xavotirlanma, zotan qayg'urganing  
bilan hech narsa o'zgarmas.

Alloh bor, oxirat bor, hisob-kitob bor.

Mazlumning hisobini so'raydigan Rabbimiz bor!



*Qo'lingdan kelsa, avft et!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **AFV ETISH BU UNUTISHDIR**

*Oliyjanob, fazilatli insonlarning eng katta  
qasosi afv etishdir.*

*Haqsizlikdan ma'yus bo'lsangda afv et. Hayotingda  
nafrat urug'laridan aqldan ozishni istamasang, afv  
et. Kechirganingda, o'zingni yanada erkin his qilasan.  
Kechirimliging tufayli ruhing yengillashadi. Ko'ngling  
hamisha xotirjam va pok bo'ladi.*

**\***

Nafrat hayotingni bir bo'lagi bo'lishiga yo'l qo'yma. Nafrat insonning hayotdan zavqlanishiga to'sqinlik qiladi. Nafrat insonning tashqi ko'rinishini bir xil qiladi. Atrofdagi hammani bilasan, lekin hayot senga rangsiz ko'rinadi. Nafrat senga insonlarning ijobiy tarafini salbiy ko'rsatadi. Shubhadan ko'zlaring xiralashadi.

Nafrat onglarda shubha urug'ini tarqatadi. Depressiya odamlarni tubsizlikka olib borib, doimiy umidsizlik urug'ini sochadi. Bu holatlar insonni baxtsizligiga sabab bo'ladi. Kechirish esa, vaqt o'tishi bilan hayotni go'zallashtiradi.

Inson kechirimli bo'lishi kerak va bunga ruhan tayyorlanishi lozim. Chunki kechirish bu juda oson va imkonsiz bo'lmagan tanlovdir. Sen o'zingni majburlab emas, balki chin dildan, bajonidil kechirishing kerak. Kechirish bu zo'rlik emas, zotan go'zallik majburan qilinmas. Kechirish vaqt o'tishi bilan yuzaga chiqadi.

Ular: «Seni Kechirdim», deyishadi. Kechirish bu daholikdir!

Shartsiz afv et! Kechirish – bu yelkangdan yukni olib tashlashdir. Kechirib yengil bo'lasan... Qalbing asossiz g'amdan uzoq bo'ladi. Kechirishni oson deb ayto olmayman. Kuchlilargina kechira oladi. O'zingni yengil his etishing uchun kechirishing zarur. Kechirish insonni kuchliroq qiladi va hayotidagi yorqin xotiralar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Unutma!

Kechirish bu g'azab va nafrat qulligidan xalos bo'lishdir, kechirish bu og'riqni his qiladigan qalblarga taskin beruvchi malhamdir.

Ehtimol, senga qilingan yomonlik qalbingda iz kabi qolar, ammo kechir, chunki kechirish bu hissiy unutishdir.

**Albatta, ular qilmishlaridan afsuslanadilar, Sen esa kechir, shunda seni ham kechiradilar. Ishon, Rabbimiz kechirguvchi va u kechirimlilarni sevadi. Unutma! Sening kechirishing ehtimol, o'tmishingni o'zgartirmaydi, lekin kelajakdagi to'siqlarni olib tashlaydi. Qani bo'la qo'l!  
Kechir va yana hayotingga qayt!**

5

**Kechirsang ertangi kuning go'zallashadi. „Faqat boshingdan o'tkazganlaringdan saboq ol va uni kelajak uchun qo'lla. Shundagina kelgusi hayoting go'zal va barokatli bo'ladi“.**

\*

Sen o'tkazgan vaqting davomida emas, balki olgan saboqlaringdan ulg'ayasan. Saboq olsang, istiqboling o'zgaradi. His-tuyg'ularing yetuklashib, fikrlaring oydinlashadi. Hayotda yashab saboq olasan.

Sen ortiq avvalgi Sen emas, balki bir pog'ona ulg'ayib, yetuk holda o'tmishingni kulib eslab, kelajakka ishonchli, dadil qadam tashlaysan.

Sen qilishing kerak bo'lgan narsa – bu boshdan kechirgan xatolaringdan saboq olish va hech qachon umidsizlanmaslik.

Rabbing senga yangi imkoniyatlar beradi, bunga hatto o'zing ham ishona olmaysan.

Hech qachon umidingni yo'qotma!

Unutma!

Ertangi kuning yanada chiroyli bo'lishiga umid qil!



*O'tmishdan voz kechib, kelajakka sayr qil!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **TAJRIBA – BU HAYOT ALIFBOSI**

*Bilim va tajribadan olingan saboq insonni kamolotga yetkazadi, lekin olingan bilim va to'plangan tajribani birovning hayotidan saboq chiqarib ham olish mumkin.*

*Hayot bu tajribadir va sen ma'lumotlarni tahlil qil, chunki hayotni boshdan kechirmasdan, ma'lumotni tahlil qilmasdan, yetuk bo'lishing va muvaffaqiyatga erishishing mumkin emas.*

**\***

Hayotda insonlar turlichadir: biri shirinso'z bo'lsa, boshqasining tili zahar. Aynan zahar tilli insonlar bilan suhbatlashsang ham yashashdan to'xtama. Hayotning qiyinchiliklari seni yiqitmasin, aslida har bir qiyinchilik insonni yanada kuchli bo'lishi uchun berilgan bir imkoniyatdir. Sendan bu yo'lni to'g'ri va halol bosib o'tish talab qilinadi.

Sezdingmi! Yugurganingda hayot sekinlashadi. Yugurganingda og'riq kamayadi. Yugurishni boshlaganingda seni xafa qiladigan odamlar va og'riqli voqealar hayotingdan birma-bir chiqib ketadi. Yugurganingda ertangi kuning quyosh kabi yorqinlashadi va ba'zi unutishing kerak bo'lgan narsalar mavjudligini anglab yetasan.

Bu hayot... U ba'zan seni kuldiradi, ba'zida qattiq ranjitadi. Oyning 15 kuni yorug' 15 esa qorong'i. Hech-

qisi yo'q! Hayotga juda berilib ketma, hadeb tashvishlanma, axir bu Hayot....

Hayot o'rgatadi va hayot haqida bilganing sari insonlarni yaxshi ajrata olasan.

Odamlar bilan qanchalik ko'p tanishsang, o'zingni shunchalik kuchli his qilasan. Zotan, endi sen o'zini xafa qildirib qo'yadigan ko'ngli bo'sh inson emassan, chunki hayot tegirmonga o'xshaydi, uning toshi orasidagi odamlarni maydalashga urinadi.

Yashaganing sari oqni qoradan ajrata olganing kabi insonlarni farqlay boshlaysan.

Nigohing o'tkirlashib, hayoting yorqinlashadi va yaxshini yomondan, to'grini egridan, rostni yolg'ondan qiyinchiliksiz farqlay boshlaysan.

Bu hayotda goh kulasan, goh yig'laysan.

Ba'zan baxtdan uhasan, ba'zida qayg'u qanotlarini sindiradi. Hayoting davomida ko'rgan kechirganlaring senga tajriba bo'ladi. Yagona amal qilishing kerak bo'lgan narsa – bu ko'rganlaringdan saboq chiqarish va to'g'ri yo'ldan yurmoqlik.

Sen to'playdigan bir narsa – bu tajriba yo'lingda qo'yiladigan tamal toshi bo'ladi. Shunday ekan yo'lingni mustahkam barpo et.

Ortga boq! Hayotingdagi yomon lahzalar senga bebaho tajriba keltiradi.

Unutma!

Hayotning har bir inson uchun sinovi bordir. Kimdir yomonni yaxshidan farqlay olmaganiga, yana kimdir esa yanglish insonga ishonganiga, biri esa ishonganlaridan pand yeganiga afsus chekyapti. Shu tarzda har bir inson hayotning ushbu tegirmonida og'riq va

quvonch bilan aralashadi. Sening vazifang esa tanlashdir. Yo'l bosganing sari yarang yangilanadi. Ammo vaqt o'tgani sayin yarang malham topib ko'ngling yorishadi. Chunki har bir qiyinchilikdan so'ng bir yengillik keladi deb va'da qilgan Rabbimiz!

**Hayot hamma uchun ochiq bo'lgan kitobga o'xshaydi, uning sahifalari ba'zan shaffof, ba'zan bo'sh, ba'zan rangli, ba'zan oq va qoradir. Hayotda yashab ko'rmasdan, na insonlarni farqlay olasan va na oqni qoradan ajrata olasan. Shu sababli, tajriba hayot alifbosidir!**



6

**«Hayot meva beradigan daraxtga o'xshaydi».  
Sabr qilganing sari gullab-yashnab mevasi  
ko'payadi.**

\*

Sabr – bu og'riq.

Ammo aslo ranjishni anglatmaydi.

Sabrni sinovdan o'tkazadigan narsa – bu hech narsa  
qilmasdan matonat bilan kutish. Sabr – bu nafaqat  
kutish balki harakat.

Sabr – misoli bir gulning ochilishini kutish.  
Sabr gulni yetishtirguvchi duodir. Ibodat qilish va  
qat'iyatli bo'lishdir. Sabr – bu hayotingda berilgan  
ne'matlarga shukr qilish.

Sabr qil!

Chunki sabrning so'ngida ochiladigan eshik  
rahm-shafqatdir.



*Hayot sinovlarining keltiradigan tashvishlariga sabr  
urug'ini soch.*

*Kelajakda undan gullar unib chiqadi!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **HAYOTINGDAN KETGANLAR HAYOTINGGA YANADA YAXSHI INSONLARNI KIRIB KELISHI UCHUN IMKONDIR**

*Sabr – bu mashaqqat, qayg'u va azobdir,  
biroq oxiri huzurdir.*

*Sabr bu qalbingni yorishtiradigan otashdir. Sabrning  
davosi vaqt, namoz, duo, ko'z yoshdir, nihoyasi sevinch  
va baxtdir. Sabr bu Allohning bandasiga in'om  
etgan hadyasidir.*

**\***

Bugun qo'llaringni boshingga qo'yib qayg'uli kunlaringni qanday o'tib ketishini o'ylar ekansan, kun kelib barchasi yaxshi bo'lishini ko'rasan inshaalloh. O'sha damda yaxshi kuning ham, yomon kuning ham doimiy emasligini tushunib yetasan.

O'sha damda qila olmayman deb o'ylagan ishlaringni qilib, voz kecholmayman degan insonlardan osongina voz kechib, hayotingni yangidan boshlaysan.

O'sha damda hech narsa seni avvalgidek qo'rqitmaydi. Har qanday muammo Senga yengib bo'lmaydigan tog'dek ko'rinmaydi. O'sha damda hammasi yaxshi va go'zal bo'ladi. Sen faqat ishon, duoda bo'l va sabr qil.

Noshukur bo'lma, kelajakda go'zal kunlarda yashashni istasang hozirgi holingga shukur et, chunki shukur qilib hayotingga mazmun kiritasan.

Duosiz qolma, qo'llaringni duoga och, chunki har

bir duo ertangi kunga bo'lgan umiddir. Ko'z yoshlaring bilan duoda bo'l va duolaringda Rabbingga shukur keltir. Sabr bilan ertangi kuning uchun duo qil. Unutma! Barcha yo'qotganlaring hayotingga yangilari kelishi uchun imkoniyatdir.

Hech qachon «Bo'lmadi, bo'lmaydi dema», bo'ladi, albatta, bo'ladi, albatta, eng yaxshisi va eng go'zali bo'ladi. Doimo duoda bo'l va qalbingda Allohdan so'ragan duong bo'lsin.

Unutma! Avval sabr qil, sabr qilsang vujuding otash kabi qovuriladi, so'ngra o'zingni yengil his qilib, ko'ngling sevinadi, chunki qiyinchilik ortidan, albatta, baxtli onlar keladi.


Unutma!

Kundan keyin tun kelgani kabi qalbingni zulmat qoplaydi. Vujuding charchoqni his qilib umidlaring so'nadi. Sarg'aygan barg misoli kuchsiz bir qariyaga aylanasan. Osmondan yoqqan yomg'ir misoli ko'zlarindan yosh oqadi. Sochlaringga qor kabi oq oralab ruhing cho'kadi. Shu holatdamisan? U holda qalbingdagi barcha dardlarni Allohga duo orqali ayt, chunki qalblar, ruhlar va ko'ngillar Allohni eslash orqali tas-kin topadi.

**Ba'zi narsalar uchun vaqt va kutishni bilish kerak.**

**Kutish barobarida duo orqali so'rash darkor va so'rashni ham to'g'ri shaklini tanlash kerak, chunki ixlos va sabr bilan qilinmagan duo ijobati bo'lmas. Quyoshsiz g'uncha ochilmaganidek, ixlos va sabr bilan qilinmagan duodan foyda yo'q.**

*Ba'zi lablar doimo yomon so'zlarni so'ylaydi,  
ba'zilarida doimo gullar hidi anqiydi.  
Ba'zi lablardan chiqqan so'zlar o'q qabi  
yuraklarni yaralaydi.  
Ba'zilari yomonlikni unuttiradi,  
beixtiyor jilmayasan. Ba'zi nigohlar seni isitadi,  
ba'zilarning dardi pul, ba'zilar qorin g'amida.  
Ba'zilarni inson deyishga tiling bormaydi,  
inson deyish mas'ul keladi odamga.*



*Qon yig'lasang ham yuzing kulsin.*

*Xayollaring tarqoq bo'lsa ham, kulib tur, qalbing  
tilka-pora bo'lsa ham, ko'zlaring porlasin, chunki  
atrofingda seni yiqilishingni kutayotgan chiyabo'ri-  
lar bor.*

*Yiqilishing bilanoq senga tashlanishadi va*

*Qiyma-qiyma qilib tashlashadi. Shu sababdan  
hech narsaga qaramay, qaddingni baland tut.*

*Yiqilma!*



7

**Ketma! Qo'llaringni duoga och! Tilingni va qalbingni duo bilan band et! Qalbingni duo bilan pokla. Duo qilishni tark etma, aks holda qalbing va ruhing muzlaydi.**

\*

Qo'rqma!  
Sening duolaring bor.  
Ko'nglingni kaftlaringga to'k, kaftlaringni ochib duo qil.  
Hech qachon umidsizlikka tushma, chunki Alloh sen bilan.

Unutma!  
Yiqilganingda emas, umid va hayajonni yo'qotganingda, sen ham yiqilasan.  
Bo'la qol!  
Umidlaringni duolaringga joyla va harakating bilan duolarni amalga oshir!



*Unutma, qalbing bir Kundalik misolidir.*

**BARCHASI SENGATALGAN.**

## **QALBING KAFTLARING BILAN OROM OLSIN**

*Qalbing kaftlaring bilan orom olsin!*

*Kundalik tut!*

*Duo qilib qalbing orom olsin. Boshqalarga aytilmagan,  
boshqalar bilishi muhim bo'lmagan narsalar,  
istaklaring, xohishlaring, niyatlaring, dardlaring  
barchasini duolaringda so'ra. Tiling misoli qalam bo'lib,  
ko'z yoshlaring tavba bo'lsin.*

*Duo deb atalgan kundaliging bo'lsin.*

**\***

Qalbimizda, ongimizda, qarashlarimizda o'tmishdan qolgan izlar bor. Bu bizning xatolarimizdir, biz ularni na o'tmishda qoldira olamiz va na kelajakka olib ketamiz. Biz bu xatolardan voz kechishni xohlaymiz-u, biroq ular bizni tark etmaydilar. Har bir insonni boshqalardan berkitgan bir burchagi bor va bu burchakda hech kim bilmagan xatolar saqlanadi.

Menda, senda, unda hammada bor bu kabi sirli burchak.

Ba'zan bu xatolar qirg'oqlarga urilgan to'lqin kabi qalbni jarohatlaydi, chuqur iz qoldiradi. Qalbimiz dengiz misolidir. O'tmishdan qolgan bu xatolar yuzimizda ajinlar paydo qiladi. Nima bo'lgan taqdirda ham hayot o'zgaradi.

Atrofga boqqaningda, nimagadir tekkaningda, kimnidir tinglaganingda, fikrlaganingda o'sha yashiringan

xatolar seni mahzun qiladi. O'sha xatolar bizni charxlaydi va shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababdan bu xatolardan voz kech va qalbingni o'rtayotgan og'riqni unut.

Agar xayolingni qamrab olgan xatolarni birin-кетин o'chirsang, qalbing orom topadi va qalbingda tikanlari bo'lsa-da, gullar ochiladi.

Sening boshqalarga aytolmagan, boshqalar bilishini xohlamagan, shaxsiy sirlaring bor va sen uchun shaxsiy bo'lgan damlar, so'zlar, obrazlar, makonlar, kitoblar, hissiyotlar mavjud.

Hayotingda o'zing uchun maxsus sahifalarga ega bo'lgan kitobing bo'lsin. Atrofingdagilar bu kitobni o'qishga intiladi, ammo yolg'izgina o'zingga ayon bir kitobing bo'lsin. Uni o'qiganda g'amlaringni unutib ko'ngling yorishsin. Bu kitobni o'qiganing sari qalbing tiniqlashsin. Seni o'zing kabi his ettiradigan, qadringni bildiradigan, eski xotiralarni unuttiradigan bir kitobing bo'lsin.

Bu kitob hayot yo'lingda senga yo'ldosh bo'lib, vaqti kelsa seni tinglaydigan va sen bilan hamsuhbat bo'ladigan hamrohing bo'ladi. Yo'lingni yoritguvchi yulduz hamda hayotingda qaysi onlar muhim va qaysinisi keraksizligini anglatuvchi bir kitobing bo'lsin. Bu kitob orqali Rabbing Senga to'g'ri yo'l ko'rsatsin.

Tasavvur qil, dunyo bir karvon, sen esa bu karvondagi yo'lovchisan. Bu dunyodagi safaring davomida ushbu kitobdan manfaatli foydalan.

Unda o'z sirlaringni saqla.

Qalbing tiniqlashgani sari yuragingda hosil bo'lgan bo'shliq to'ladi va bir makon yodingga tushadi.



Har safar ranjiganingda, o'zingni yomon va yolg'iz his etganingda boradigan makon. Dunyoning notinchligi seni bezdirgan bir payt qo'nim topadigan bir makon. Ibodatlaring qanot oladigan joy, qalbing orom topgan bir makon.

Ruhingni og'riqlardan ozod etib, Allohni bandasi ekanligingni his ettiradigan bir joy bo'lsin. Borgandan keyin ketging kelmaydigan bir makoning bo'lsin.

Qiblang – sening xulosa qiladigan joying, makoning bo'lsin.

**Bir kitobing bo'lsin va kitobning nomi Duo bo'lsin.**

**Sahifalari esa kaftlaring, diling qalaming va qalbing siyoh bo'lsin.**

**Qalbing tubidagilarni kaftlaringga to'k.**

**Qalbingni ko'klarga och.**

**Ko'ngling rohatlanishi uchungina och.**

**Bir kuni Seni ham yulduzli onlaring keladi. Shunday bir kun keladiki, o'tmishda boy bergan onlaring kelajakda qaytadi. Seni ardoqlaydigan, hamisha qo'llab-quvvatlaydigan, samimiy tabassuming sababchisi bo'ladigan yaqin insoning keladi.**

\*

Bilmaysan. Yo'lingda uchraydigan inson Senga yor-mi yoki dilozormi bila olmaysan.

Qarshingdagi inson senga baxt keltiradimi yoki dilxiralikmi, buni anglay olmaysan.

Qarshingdagi inson rost so'zlayaptimi yoki yolg'onmi, ko'rib, bila olmaysan. U soxta kulgilarni, g'arazli niyatlarni farqlay olmaysan.

Xayolingdagi ertaknamo o'ylaringga aldanib qolma. Aslida esa sening istaging sevish va sevimli bo'lishdir.

Yagona istaging qadrlash va qadrli bo'lish, baxtli qilish va baxtli bo'lish edi. Vaholonki ko'p narsa istamaganding, ammo taqdir senga shuni ham kop ko'rdi. Boshdan kechirganlaring senga tajriba bo'lsin.

Shuni unutma, qanchalik qat'iyatli va sabrli bo'lma, hayot yo'lingda doimo sen istamagan insonlar uchrayveradi.



*O'tmishda qolma, kelajak sari olg'a yur!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## SEN EMAS, U SENI YO'QOTDI.

*U sen uchun bir sinov edi, ammo Sen u uchun bir mukofot eding. Buni na Sen anglading va na u farqlay oldi. Sen chin dildan sevganing uchun anglay olmading. U ham hissiz bo'lgani uchun buni anglamadi. Sen g'olib, u esa mag'lub bo'ldi. Taqdir Sizni bir-biringizdan ayirdi va Senga o'zing orzu qilganingdan ham a'losini nasib etadi.*

\*

Sen qattiq sevganding, shu qadar sevdinki o'zingni unutilib qo'yding go'yo. Hayotingda undan o'zga hech bir kimsa yo'q edi go'yo. U sen uchun tanaga ruh, etga tirnoq, kechaga kunduz, gulga bulbul kerak bo'lgani kabi muhim edi. Usiz o'zingni kemtik his qilarding. Shu qadar sevganding uni.

Hech qachon ayrilmasligingiz haqida o'ylagan vaqtingda u seni sababsiz tark etdi. Ketishni xohladi va ketdi. Sen uni shunday sevgandingki, sen bilan qolish uchun emas, ketish uchun kelganini bilmading. Mahzun bo'lma! Sen emas u ketdi, chunki sen halol, samimiy eding, u esa tuyg'ularingni o'ynagan bir kimsa edi. Vaqti kelib u ham anglab yetadi, chunki inson zulmkor, taqdir esa adolatlidir.

Sen emas u ketarkan, u hayotini boy berdi. Aksincha, seni baxtli kelajaging uchun to'g'ri yo'lga boshladi.

U Seni nafaqat xafa, balki kuchli ham qildi. Seni tirikligingga pushaymon qilsa-da, tajribali qildi. Aqldan ozdirmadi, lekin aqlingni ishlatishni o'rgatdi. Ko'nglingni tirnab, parchalarkan ortiq sodda bo'lmaslikni o'rgatdi. Balki bularni ayni vaqtda anglamassan, ammo kun kelib, albatta, tushunib yetasan.

O'sha kunda „O'tgan ishga salovot, barchasi yaxshilikka,, deysan. U kunda o'z qadrini bilgan inson bo'lasan.

Yana shularni ham unutm!

Hayot ketgan insonning ketidan xafa bo'lishga arzimaydigan darajada qisqadir. Voz kech! Ketgan ket-sin. Unutm! Ketganning o'rni bosh qolmas, shuni bilki, hayot bo'shliqlarni xush ko'rmas. Taqdiringdan ketganning o'rnini, albatta, a'losi to'ldiradi. «Taqdir ekan», dema va hayotingda bo'ladigan o'zgarishlarga yangi sahifa och. Hech qachon mahzun bo'lma! Ko'z yoshlaring daryosiga ko'milma. Oydek jamolingni g'am ila qaritma. Aslo bunday qilma!

Qayg'uli va ko'z yoshli boqishlarni shaydolari bo'lmas. Nigohlaring porlasinki, senga boqqan kishi bu nigohlarni sezsin. Kelayotgan inson seni baxtli qilarkan, nega tark etganlar uchun qayg'u chekasan?

**Ba'zi insonlar tark etadi, ba'zilari esa qalbingga o'rnashib qoladi. Hayotingdan chiqib ketganlarga boqma va qolganlarga hech qachon tark etmaydigandek bog'lanma. U yoki bu sabablarga ko'ra ketishi kerak bo'lgan insonlar, novdadan tushgan barglar kabi hayotingdan chiqib ketadi. Unutm! Hayoting novdasida yangi barglar nish urayotganiga boq!**

9

**Shunday bir g'oyang bo'lsinki, u yo'lgiz  
seniki bo'lsin.**

**Senga yo'l ko'rsatadigan  
maqsading bo'lsin.**

\*

Bir so'z bilan aytganda, hayotda o'z o'rning,  
o'z yo'nalishing, o'z fikring bo'lsin.

Unutma!

Maqsadlar hayotni ustunidir, yashashdan  
maqsading bo'lsin.

Shu on Sen maqsading sari intilib, keraksiz  
tashvishlarga .....  
e'tibor bermaysan va hayotga o'zgacha nigoh bilan  
boqasan.



*O'z yo'ling bo'lsin va shu yo'lda olg'a yur!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## O'ZINGGA SO'Z BER

*Xayol qilishdan to'xtama.*

*Hayotning qadriga yet va berganlariga shukur qil,  
chunki kuni kelib vaqt juda tez o'tishini va hayot  
qisqaligini anglab yetasan.*

*Sen ishonsang bas.*

\*

Har kimning erishmoqchi bo'lgan maqsadi va ko'zlagan manzili bo'lishi kerak, chunki orzularsiz inson hayoti mazmunsiz bo'ladi. Maqsadlar insonni hayotga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi. Maqsadli inson daraxt kabi ildiz otadi. Maqsadli inson hayot qiyinchiliklariga uchrasa ham taslim bo'lmaydi, chunki maqsadi uchun kurashadi.

Shuning uchun orzu, maqsad va ko'zlagan manziling bo'lsin. Seni qadrli qiladigan o'zligingni anglatadigan bu maqsadlaringdir. Orzularingni duolaringda so'ra.

Go'zal bir niyating bo'lsin, biroq halolidan bo'lsin, chunki halol yo'ldan yurmasang, orzularing ro'yobini kutma. Maqsadlaringga erishishda qat'iyatli va halol bo'l, shunda Alloh senga rizq eshiklarini ochishining guvohi bo'lasan.

Ishon, hech bir harakating bekor ketmaydi, maqsadingga erisha olmasang ham Alloh Senga yaxshiroq,

xayrliroq rizqni nasib qiladi. Bugun bo'lmasa ertaga, albatta nasib qiladi. Bir kun orzularing ro'yobini, albatta, ko'rasan, faqat har narsaning vaqti-soati bor. Faqatgina umidsizlanma va harakatda bo'l.


Har bir orzu va maqsadga erishishning mashaqqatli yo'li borligini unutib olg'a qadam bos. Ba'zan toliqib, umidlaring so'nib, qiyinchiliklarga duch kelasan. Qiyinchiliklarga yengilmay yo'lingda davom et. Qiyinchiliklar maqsad sari tobora yaqinlashayotganingni anglatadi. Orzularing yo'lida qo'lingdan kelgan harakatni qil. Vaqt o'tib, go'zal sabr bilan erishgan maqsadingga shukur qilasan.

Unutma!

Maqsadingga erishishni kutma va talab qilma. Bir narsaga qattiq bog'lanib, albatta, bo'ladi dema. Bilolmaysan, Xayrli deb o'ylagan ishingda bir yomonlik bor. Astoydil xohlagan narsangda xayr bo'lmasligi mumkin, shuning uchun duolaringda doimo Xayrli rizq so'ra.


Hamisha yaxshi narsalar haqida o'yla va chin qalbdan duo qil. Yosh bola kabi orzu qil va astoydil Alloh-dan so'ra. Rabbim nasib qilmasa, xayol qildirmas. Kun kelib qiyin damlar o'tadi va yorug' kunlar keladi. Har bir narsaning o'z vaqti va hikmati bor. Buni aslo unutma! Bir ishing o'xshamasa ranjima, bilginki, demak Alloh senga yana bir imkoniyat beradi yoki undan ham a'losini nasib etadi.

**Hayotda bir maqsading bo'lsin. Bu maqsad o'zligingni anglatib, ro'yobini topsin.**



*Odob – bu sen sotib olishing mumkin  
bo'lgan eng qimmat libosdir.  
Vaqt o'tishi bilan u na eskirar, na urfdan qolar*





*Insonlar ham yanglishadi.*

*Insonlar aldanadi, yanglishadi, xiyonatga  
uchraydi, nafsiga yengiladi va ba'zan to'g'ri yo'ldan  
adashadi.*

*Chunki inson zaifdir, beayb parvardigor.*

*Inson xato qilib hayotda yashashni o'rganadi.*

*Xatosiz biror ish bo'lmas. Xato qilishing bilan  
Alloh tavba eshiklarini ochadi va Senga imkon  
beradi.*

10

**Hayotingda ba'zi narsalardan bir zumda voz kecholmaysan, lekin hayot asta-sekinlik bilan o'sha narsalardan seni uzoqlashtiradi.**

\*

Chiqar, Voz kech, Uddasidan chiq va to'pla.

Hayotingdan barcha qayg'ularni chiqarib tashla.  
Hayotingdagi barcha keraksiz insonlardan voz kech.

Hayotni bir dasht kabi ko'r.

Atrofingda go'zalliklarni to'pla.

O'tmish va undagi ko'ngilsizlardan voz kech.



*Chiqar, voz kech, urinib ko'r va to'pla.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **HAYOTINGNI GO'ZALLASHTIR**

*Aslida hech kim bir-biriga yomonlik qilishni istamaydi. Ammo ba'zi insonlar shunday ish qiladilarki, ulardan voz kechmay bo'lmaydi. U insonlarni hayotingdan chiqarib, xotirangdan o'chirib, o'tmishda qoldirishing o'zingga qilgan katta yaxshiligingdir, chunki bunday insonlar hayotingda bir yuk bo'lib, fikrlaringdan chalg'itadi. Ulardan voz kechish kelajakda o'z yo'lingni topishga imkon beradi.*

**\***

Bu hayotda qilmasliging kerak bo'lgan ba'zi narsalar mavjud. Joningga ozor beradiganlardan uzoq tur. Undaylarni hayotingdan, xotiralaringdan, ko'nglingdan chiqar. Sen bilan xursandchiligini bo'lishadiganlar bilan bo'l. Barchani xursandchiligingga sherik deb o'ylama. Dardingni va rejalarini boshqalarga aytma. Barcha seni havas bilan tinglaydi deb o'ylama. Boshqalar haqida qayg'urib o'zingni qadrsizlantirma. Atrofingda faqat yaxshi insonlarni to'pla va ular bilan munosabatlaringni mustahkamla. Sirlaringni boshqalarga aytma. Sirlaringni bilganlar ertaga yo'llaringiz ajralsa, boshqalarga, albatta, aytar. O'z yo'ling va so'zing bo'lsin, boshqalarga taqlid qilma.

Voz kech, Sendan voz kechganlardan voz kech. Ularga ehtiyojning bor bo'lgan holda Seni tark etganlardan

voz kech. Seni o'zing kabi qabul qilmaganlardan voz kech. Yolg'on so'zlari bilan Seni aldaganlardan voz kech. Seni hurmat qilmay, qadringni bilmaganlardan voz kech. Seni xafa qilganlardan voz kech.

Seni qadrlamaganlarni, senga tuhmat qiladiganlarni unut. Yuzingga kulib boqib, orqangdan pichoq uradiganlarni unut. Barchasini unutib, hayotingni yangidan boshla, chunki bundaylarning hayotingda qiymati yo'q va ular seni yanada kuchli bo'lib yashashda davom etishga sababchi bo'lar.

Seni borligingcha qabul qilmay o'zgartirishga harakat qilgan hamda o'zligingdan voz kechishga uruntirayotgan insonlardan qoch va bunday insonlar bilan hisoblashma.

O'zing ham birovni o'zgartirishga aslo harakat qilma, zero bu foydasiz.

Nahotki, anglamayotgan bo'lsang, barchasiga chek qo'yishni vaqti kelmadimikan?

Undaylarni so'zlariga quloq solib, kun tunga aylangani kabi o'zingni qayg'uga solma. Yoki qalbi qora inson bilan umringni bog'lab pushaymon bo'lasan. Hayotingdan bunday kimsalarni chiqarib go'zal hayotga yo'l och.

**Hayotingni go'zallashtirib, kelajagingni porloq qilib, maroq bilan yashashni istaysanmi? U holda atrofingni o'zingga nomunosib insonlardan tozala. Aqlingda seni chalg'ituvchi yolg'on va qayg'ulardan voz kech. Qalbingni tirnayotgan yomonliklardan voz kechgin, shunda hayoting yanada go'zallashar.**

11

**Manfaat va havas uchun emas, balki bir umrga va chin dildan bir insonni sev.**

\*

Sevsang go'zal sev.

Uni qalbing bilan sev.

Suratiga boqib emas, balki qalbi tozaligi uchun sev.  
Qalbini bir ummon deb bilib, butun borlig'ing bilan sev.

Uni misoli bir go'zal atirgul kabi sev.

Xayollaringdagi nozik bir chechak kabi tanla,  
sev va qadriga yet. Unga shirin so'zlarni so'zla va  
sevingni go'zal qo'shiqlar bilan ifodala.

Uning boqishlari bag'ringni olov kabi qizdirib,  
oy misoli yo'lingni yoritar.



*Nozik hislar bilan sev.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## SEVGILING SEVGANINGNI HIS QILSIN

*Sevsa, chin dildan sevsin va albatta,  
seni borligingcha qabul qilsin.  
Shunday bo'lishi kerak ekanligi uchun emas, balki  
boricha sevsin. Sendan kamchilik qidirmay,  
kamchiliging bilan sevsin.  
Seni yaxshi-yu yomon taraflaring bilan sevsin.  
Sevgisi samimiy, yolg'ondan yiroq bo'lsin.*

\*

Go'zal sev va sevgiligingga sodiq qol. Sevgiling sevganingni his qilsin. His qilgan vaqt hayotini senga bag'ishlaydi.

Malol kelmasdan sev, ortiqcha gap-so'zlarsiz va o'zingdan voz kechmasdan sev. Sevgingni avayla va sokin, jimgina sev.

Mubolag'asiz, dabdabasiz, vazmin sev. Xafa qilmasdan, ko'nglini cho'ktirmasdan sev. Sevgingga, qadringga sadoqatli bo'lsin. Shunday sevki, ishonchli bo'lsin. Sevgiling senga hamroh bo'lsin. Sevgingni qalbingga yashirib, nigohlaringga hayo pardalarini os. Xayolingda faqat u bo'lsin.

Inson kabi sev, har kimga ko'ngil qo'ymay, ko'zlarini yoringdan uzmay sev. Undan boshqasiga boqmasin ko'zlaring. Diling boshqa, tiling boshqa bo'lmasin. Qo'llaring yoring qo'lini his etsin. Unga boqib ko'z-

laring quvonsin. Unga xiyonat qilib, o'zingni halok qilma.

Chin yurakdan sev. Uning ismini faqat tilingda emas, balki dilingda, yurakdan his etib ayt.

Sev, sevgisiz qolma, ammo o'zingdan ortiq sevma. Me'yorni bil.

Unutma!

Har kim ham sevish va sevilishni anglab yetmaydi. Sevgi yurakda saqlanadi va bir qarashda sevgisini qay ahvolda ekanini bilib oladi. Qadrlab, hurmat qiladi, hurmat qilib ishonadi. Asosiysi, asl holicha, boricha sevadi.

**Sevgan insoningga uni qanchalik sevishingni ayt.**

**Sog'inganingni, unga intilayotganingni his ettir.**

**U sen uchun qanchalik muhimligini tushuntir.**

**Uning ko'nglini olish uchun imkoning, vaqting**

**borida qilishing mumkin bo'lgan eng yaxshi**

**ishlarni qil, yo'qsa kech bo'lishi mumkin.**

**Kech bo'lmasdan avval, „qaniydi,“ degan  
pushaymonliklar chekmasdan avval barchasini  
ayt va his ettir.**

12

**Ko'ngil atirgul misolidir, bulbul esa – muhabbat.  
Muhabbatni foniyl dunyo bilan bog'lama va  
atirgulingni foniyl dunyoga ekma - unib chiqmaydi.  
Zotan, ko'ngil ishi juda nozikdir, u jannatda  
ochilgan g'uncha misolidir!**

\*

Sevgi – bu orzu. Sevgi mag'rurlikni bilmaydi.  
Oshiq sevgilisini sog'inar.  
Oshiq uchun sog'inch chorasizlik emas.  
Sog'inganingni qadriga yetadigan yoring bo'lsin.  
Ishqqa g'urur tiz cho'kadi, chunki ishq g'ururli bir  
ko'ngilda yashay olmagan bir chechakdir.  
Ishq ko'ngilga xush yoqadi va qalbdagi  
g'amlarni unuttiradi.



*Go'zal ishq sohibini sev.*

**BARCHASI SENGATALGAN.**



## SEV VA SEVIMLI BO'L

*Sevgi – bu yo'llariga tikanli atirgullar  
sochilgan uzun yo'l.  
Bu yo'l tikanlarini ko'rib qo'rqan  
va orqaga qaytganlarni emas,  
balki qiyinchiliklariga qaramay,  
yo'lning mashaqqatiga dosh berib mardona  
sevganlarning yo'lidir.*

\*

Sevish nima ekanligini bilasanmi? Sevgi ba'zilar uchun qarashlarda namoyon bo'ladi, ba'zilar esa his qilishni anglatadi.

Sevish bu begonalardan nigohini tiyish va sevgisiga sadoqatli qolishdir, ba'zan esa sevimli insonini qalban his qilishdir.

Sevish gohida sabr qilish va birga orzu qilishdir.

Sevgi isbotdan avval ishonchni talab qiladi.


Kema langar yordamida bir yerda qotgani kabi sevgi ham ishonch bilan kuchlidir.

Ba'zilar uchun sevgi bir lahzalik havas va o'yin bo'lsa, ba'zilar uchun esa abadiy ilohiy tuyg'udir.


Kimgadir sevish yoqar, kimgadir esa sevilish. Ehtimol, kimni sevish yoki sevmaslik senga bog'liq emasdir, ammo hayoting davomida kimga hamrohlik qilish tanlovi o'z qo'lingda. Buni zinhor yodingdan chiqarma.

**Ko'ngling hamisha xotirjam bo'lsin, chehrang  
quvonchdan porlasin va lablaringdan mayin  
tabassum arimasin.**

**Hamisha xursand va xushchaqchaq bo'lsang,  
hayoting zavqli va mazmunli bo'ladi.  
Eng asosiysi, sevgi seni tark etmaydi.**



*Do'st deb suyanganlaring kun kelib sendan  
uzoqlashishi mumkin.  
Yaqin deb hisoblagan insonlaring bir kunmas bir  
kun seni ranjitishi, uyaltirib qo'yishi yoki qiyin  
damlaringda yoningda bo'lmasligi mumkin.  
Nima bo'lganda ham insonmiz  
va hayot har doim ham bir tekis kechavermaydi.  
Eng asosiysi, sen qo'nglingni cho'ktirma  
va insonlarga bog'lanib qolma, shundagina  
ularni qo'yib yuborishing  
oson kechadi va irodang yanada  
mustahkamlanadi.*



*Yoshlik zavqli va jo'shqin davrdir.*

*Yoshlik bir marotaba beriladigan tengsiz imkoniyat xazinasi va hayotingning eng go'zal damlaridir.*

*Yoshlikning qiymatini bil va undan unumli foydalan.*

*Umringning eng go'zal damlarini to'g'ri yo'lda, haromdan yiroqda, iymonda kechirgin.*

*O'qi, izlan, sevgan mashg'ulotlaring bilan shug'ullan, qisqasi hayotni his et va yasha.*

*Ammo oxirating haqida ham unutma. Ko'p savobli ishlar qil, ibodatingni o'z vaqtida ado et va sadaqa qilishni to'xtatma.*

*Halollik – mushkul, ammo mukofoti Jannatdir.*

*Haromning oxiri esa Jahannamning azobli otashidir.*

13

**Ishqni ishonchli qalbdan izla. Sevgi yurakda his etiladi. Sevib qolgan inson o'zini o'zgacha his etadi. Sevib qolgan inson qarashlarni qalbi bilan his etadi.**

\*

Sevarkansan, inson kabi sev.  
Boylik uchun emas, toza qalb, pok vijdon uchun sev.  
Shirinso'z bo'lganni sev. Seni kamchiligingni ko'rganni emas, sendagi bo'shliqni to'ldiradigan insonni sev.  
Seni ranjitadiganni emas, pok qalbi bilan hayotga ishtiyoqingni uyg'otadiganni sev.  
Nafaqat hozir, balki kelajakda ham hamroh bo'ladigan insonni sev.  
Unday inson yo'q dema, albatta, bor shu kabi insonlar.  
Hali uchratmagan bo'lsang, manzilda adashgansan.  
Bog'lardan emas, tog'lardan izla. Uni topganingdan so'ng, ko'nglini olish uchun qo'lingdan kelganini qil.  
Unutma!  
Yaxshisini topish qiyin, biroq yo'qotish oson.



*Qalbi tosh insonga ko'ngil berma, seni ham qalbing toshga aylanadi.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **QALBINGDAN JOY OLADIGAN INSONNI SEV**

*So'z eshikdir, ko'ngil bu o'sha eshik uyidir.*

*Ko'z – ko'ngilning panjarasi,*

*fikr esa bu uying bezagidir.*

*So'zing ishonchliligi qarashlaringdagi  
samimiyatda bilinadi.*

*Bu tuyg'ular yo'q bo'lsa, uying va sen vayron  
bo'lasan.*

**\***

Nazar sol! Sen bir qisming kabi uni doimo qo'llab-quvvatlaysan.

Qalban hamsuhbat bo'lib, ko'zlaring unga boqarkan sevgidan porlab turadi.

Uni ko'rgach, yuraging allanechuk bo'lib yuzingda tabassum uyg'onadi.

U boshqalarga o'xshamaydi va yolg'iz sengagina tegishli bo'ladi hamda butun umrga sen bilan qoladi. Shunday bir insonni sevki, tili va dili bir bo'lsin.

Fikrlari seniki bilan hamohang bo'lsin.

Nafaqat nigohlari bilan balki qalban his etib sevsin.

Senga boqqanda ko'zlari porlab, suhbatlashganda ovozi titrab, boringcha seva oladigan bir insonni sev.

Sening sevgingga arziydigan, hayotingni eng go'zal onlarini u bilan o'tkazadigan bir inson bo'lishi kerak. Yoningda bo'larkan «Hayotimda borliging men uchun baxt», deb aytuvchi inson bo'lishi kerak. Sening

sevgingga arziydigan kishi bo'lishi kerak. Uning sevgisi qadrli, harakatlari samimiy, so'zlari shirin va boqishlari mazmunli bo'lishi kerak.

Qayg'uriganingda qayg'urib, quvonganingda quvonadigan, fikrlari hamohang insonni sev.

Unutma!

Seni chin dildan sevadigan, boringcha qabul qilib qadrlaydigan, sendan kamchilik qidirmay, senga ishonib, orqangdan gap tarqatmaydigan insonni sev. Sevgisi pok, qadrli insonni sev.

**Uni ko'zlari-yu qora qoshlariga, baland bo'yi yoki maftunkor ko'rinishiga, ovozi yoki tabassumiga boqma, balki pok qalbi, iymoni mustahkamligiga boq, chunki undaylarni qo'lidan yomonlik kelmas.**

14

**Qiz bola osmondagi yulduzlarga o'xshaydi.  
Osmonda minglab yulduz bo'lsa-da, erkak faqat  
birigagina oshiq bo'ladi.**

\*

Qiz bolaning dunyosiga kirganingda, albatta, unda iz  
qoldirasan.

Qiz bolaning ko'ngli juda nozik g'unchaga o'xshaydi.  
Ayol kishi qulog'i bilan sevadi, shirin so'zlar bilan  
ko'nglini ko'tar, ardoqla.

Yulduzlar ko'zni qamashtirgani kabi qizlar ham  
atrofingda parvona bo'ladi, biroq sen zavjangni sev va  
o'zgaga boqma.

Shundagina hayoting osuda kechadi.



*Haromdan hazar qil!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**



## AYOLNI SEVISH BU

*Ayolni sevdimgmi, uni baxtli qil, e'zozla va shundagina  
u senga tayanch bo'ladi, hamisha seni  
qo'llab-quvvatlaydi. Aslo uning ko'zyoshlari  
sababchisi bo'lma.*

\*

Zotan, ayol kishi Alloh taoloning omonatidir.  
Omonatga xiyonatning jazosi og'irdir.  
Ayolni sevdimgmi, albatta, uni baxtli qil.  
Uni qadrla va hamisha shirin so'zlar bilan ko'nglini  
ko'tar.

Ayol zotining ko'ngli g'uncha kabi nozikdir.  
G'unchaga quyosh nuri zarurligi kabi ayol kishi ham  
e'tibor talab etadi.

E'tibor deganda kiyim-kechak yoki tilla taqinchoq-  
lar emas, balki dildan oddiy suhbat yoki bir finjon choy  
bo'lishi ham mumkin.

Unga vaqtingni ajrat, uzundan-uzun suhbat qur  
va hech ham ozor yetkazma, ko'z yoshlari sababchisi  
bo'lma.

Shunday sevginki, u sevilganini va himoya ostida  
ekanligini his qilsin.

Aslo ayol kishini ranjitma va norozi qilma.

Zero ayol kishi Alloh taoloning omonatidir.

Omonatga xiyonat qilish gunohi Azimdir!

Ayolni sev va u bilan qol, uni aldama. Nigohidagi

nurni o'chirma, kulgilarini so'ndirma va ko'nglini qoldirma.

Ayolni sev, qalban his qil, ko'zlaridagi sog'inch bo'l, sochlarini silagan yengil shabada bo'l, ammo ko'z yoshlari bo'lma, his-tuyg'ularini poymol qilma.

Unutma!

Ayol yoki erkakning sevgisi ko'zlarida namoyon bo'ladi, muhabbat paydo bo'lsa, ko'zlar porlaydi, chunki ko'zlar qalb oynasidir.

**Insonning sevimli umr yo'ldoshi bo'lishi lozimdir,  
unga hamroh bo'ladigan, og'ir damlarida birga  
bo'ladigan, qalbiga huzur bag'ishlaydigan bir  
insonni bo'lishi lozim.**

15

**Ishonch bildirasan, hurmat qilasan va qo'lingdan kelgancha yordam berasan do'st deb bilgan insonlaringga, ammo ulardan bunday javob kelmaganidan so'ng, sen ham o'zgara boshlaysan.**

\*

O'zgar!

Bir xillikdan, insonlarning sovuq muomalasidan va ikkiyuzlamachi insonlardan uzoq tur. Shunday o'zgarginki, insonlarga ishonib, osonlikcha aldanib qolma.

Shunday o'zgarginki, irodang yanada kuchaysin va hayotga bo'lgan ishtiyoqing yanada oshsin.

Misol: dunyoqarashingni, xatti-harakatlaringni va hayot tarzingni o'zgartir.

Senga yuk bo'lgan barcha alamli xotiralaringni va dilxiraliklarni unut va kechir.



*Sen o'zgarsang – hayoting ham yaxshi tarafga o'zgaradi!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **HAYOTINGDA O'ZGARISHLAR QILISHDAN QO'RQMA**

*Hayot insonga zavq bag'ishlaydi.  
Ammo ba'zi vaqtda xursandchilikdan yoki hayajondan  
xatolarga yo'l qo'yadi inson.*

**\***

Hech bir narsang o'xshamayaptimi?

U holda hayotga bo'lgan qarashlaringni va qiziqishlaringni o'zgartir.

O'zgarishlarni avval o'zingdan boshla – dunyo-qarashingni xatti-harakatlaringni va hayot tarzingni o'zgartir.

Javobsiz qolgan savollaringga javob izla.

O'zgarishlar qiyinchilik tug'dirishi tabiiy, ammo Alloh taolo har bir qiyinchilikdan so'ng yaxshilik va'da qilgan!

Bu qiyinchiliklarning barchasi o'tkinchi va qisqa vaqt ichida o'tib ketadi.

Hozir farqlay olmassan, balki tushunging kelmas, ammo bu qiyin damlaring senga dars bo'ladi.

Bu kunlaring o'tib ketadi va bu senga tajriba va ishonch beradi.

Hayotga o'zgacha nigoh bilan qaraydigan tajribali yetuk insonga aylanasan.

Qiyinchiliklar tengsiz tajriba bilan qaysidir ma'no-da foydali ham.

Mahzunliging, baxtsizliging, ko'z yoshlaring va qiyinchiliklaring abadiy deb o'ylama.

Har biri sening yorqin kelajaging elchisidir.

Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'i bo'lgani kabi har bir qiyinchilik ortidan bir yengillik va'da qilingan.

O'sha kun keladi va u kunda nima bo'ladi? U kunda ko'p narsani farqiga borasan va o'zgacha odam bo'lasan. Hayotga sog'lom qaraydigan, insonlarni oson farqlay oladigan bo'lasan, kimga ishonib, kimga ishonmaslikni anglab, xatolaringdan saboq olasan.

Unutma!

Boshingdan kechirganlarga xafa bo'lishni bas qil va hayotni boricha qabul qil. Faqat yomonliklarga e'tibor bermay, yaxshiliklarga diqqatingni qarat. Shunda hayotga, insonlarga va hodisalarga bo'lgan qarashing yaxshilanadi hamda o'zingni baxtiyor his eta boshlaysan.

**Siqilishlaring sababini yolg'iz o'zingdan ko'rma,  
chunki qayg'u cheksang qalbing xonavayron  
bo'ladi. Vaqt oliy hakam, vaqt o'tib barchasi iziga  
tushadi.**

*Erkaklar nega adashadi?*

*Ayoliga Allohning omonati deb hurmat bilan emas,  
balki qo'pol muomalada bo'lgani uchun, iffat va mehir  
sifatlari faqat ayol kishiga xos deb hisoblagani uchun  
adashadi erkak,*

*O'g'lim katta bo'lsa, yaxshi amallar qiladi deb emas,  
„O'g'lonim katta bo'lganida qancha yuraklarni yoqadi“,  
deb o'ylagani uchun adashadi erkak,  
Insoniylik fazilati yo'qligi uchun ham adashadi  
erkak,*

*Qiz bolani go'zal qiladigan na bo'y-basti, na go'zal chehrasi va na kiyim kechagidir.*

*Uning chiroyi aslida iymonli pok qalbida va sirliligidadir.*

*E'tiboringni kiyim-kechak va noz-qarashmalarga qaratma.*

*Go'zallik o'tkinchi, odob-axloq esa abadiydir.*



16

**Unut va e'tibor berma!  
Ular qanchalar jirkanchlashaversalar  
ham sir boy berma.  
Sen hamisha asling kabi bo'l!**

\*

Qalbingni pok tut!  
Ko'nglingni alam, qayg'u, nafrat va hasad kabi  
tuyg'ulardan yiroq tut.  
Ko'ngling to'rida ibodat va go'zal xulq-atvor bo'lsin.  
Unutma!  
Qalbing go'zalliklarga to'la bo'lsin, balki bu juda  
qiyindir, ammo kelajakda va oxiratda juda foydalidir.



*To'g'ri yo'ldan yur – manzilga yetasan.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**



## QALBINGNI POK SAQLA

*Yuzingdagi har bir tabassuming dushmanlaring  
uchun zaharli xanjar kabidir.  
Buni aslo unutm!*

\*

Ba'zilar Seni yoqtiradi, ba'zilar hasad qiladi, ba'zisi do'sting bo'lsa, boshqasi dushmaningdir. Ba'zilar samimiydir, boshqalari hasadgo'ydir. Kimdir sir saqlar, kimdir g'iybat qilar. Ba'zilarni yo'qligida sog'inasan, ba'zilarni borligida ham sezmayсан. Ba'zilar Sen bilan baravar dard chekadi, boshqalar mag'lubiyatingni kutib yashaydi.

Undaylari ham, bundaylari ham bor. Turli insonlar uchraydi hayotingda. Sen doimo eng to'g'risi va eng yaxshisini tanlay bil. Jilmayib, hayotingda davom et. G'iybatlarga quloq solma.

E'tibor berma, gapiraversinlar, xohlaganlaricha pastkashlashib, nafratga to'lsinlar. Sen haqligingga amin bo'l, ular istaganlarini qilsinlar. Insonlarning na eng yomon so'zlari, na hasad bilan boqishlari seni to'xtata olmaydilar. Bas, g'iybatlarga quloq solma.

Agar samimiy bo'lganlarida orqangdan emas, balki yuzingga aytgan bo'lardilar.

Unut, Sen to'g'ri yo'lda qol, yanglishlardan uzoq tur. Doimo pok bo'l, yomonlik qilma. Hammaga yordam

beruvchi, adolatli bo'l. Asling kabi bo'l, taqlid qilma. Tiling shirin bo'lsin. Nigohlaringdagi nurni so'ndirma. Umidsiz bo'lma, tiling va qalbing bilan ibodatda bo'l.

Inson qalbi go'zal bo'lishi kerak. Inson o'zi buni qilolmaydi. Qalbini hasad bilan zanglatmasligi, nafrat bilan zaharlamasligi, harom bilan ifloslantirmasligi kerak. Doimo qalbingni toza tut.

Shuhratparastlik, hasad, nafrat kabi salbiy tuyg'ular inson qalbini qoraytirib, yuzidagi tabassumini so'ndiradi.

Unutma!

Nega boshqalarda bor, menda esa yo'q deb nolima.

Boshqalarga hisobsiz mulkidan bergan Alloh Senga ham vaqti kelib xayrlisini berar inshoolloh. Sen faqat duolaringda, ibodatlaringda Allohdan so'ra. So'ng bu dunyoda yoki oxiratda, albatta, Alloh xayrlisini berar.

**Ular Sen haqingda istaganlaricha g'iybat qilsinlar,  
ammo sen quyosh kabi porla,  
vaqti kelib hasratlaring ham unutilar.**

17

**„Bu hayot seniki” .....O'zing qaror qabul qil,  
fikrla, tahlil qil, maslahat ol!  
Lekin oxirgi qarorni doimo o'zing qabul qilasan.  
O'z hayotingni o'zing boshqar.**

\*

Qiyin, imkonsiz, qila olmayman dema!  
Bu kabi so'zlar bilan ko'nglingni cho'ktirma.  
Men qila olaman, deb ishonch bilan ayt.  
O'zingga ishon va maqsadlaringga erishish  
oson bo'ladi.



*O'zingga hamisha ishon.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## O'ZINGGA ISHON

*Hammamiz turlichamiz. Tabiiyki mahoratimiz va qarashlarimiz ham shunday – kimdir sendan yaxshiroq taom tayyorlaydi, sen esa undan yaxshiroq kiyim tanlaysan, shunga o'xshash...*

\*

Shuning uchun qila olmaydigan ishlaringga achinma, yaxshisi qila oladigan ishlaringni yanada rivojlantir.

Avvalambor, o'zingdan boshla – o'zingni tingla, qiziqishlaring haqida o'yla va yaxshi ko'rgan ishing bilan mashg'ul bo'l

Seni boshqalardan ajratib turadigan va zavq bag'ishlaydigan ish top.

O'zingni kashf et va o'rgan. Ichki ovozingga quloq sol va o'zingni kashf et. Seni qadrli qilgan va hayotingga mazmun kiritgan, boshqalardan ajratib turadigan yaxshi va yomon taraflaringni kashf et. Hammamiz o'zgachamiz, Sen ham boshqalarga o'xshamagan o'zgacha bir olamsan, buni angla.

O'zingni sev va boringcha qabul qil: qosh-ko'zing rangi, ovozing, yurish-turishing va tabassumlaring barini qadrla.

Hayotdan nolima va odamlarga yomonlik qilma. O'zingga munosib insonlarni o'zingdan uzoqlashtirma.

O'zingga ishon: his tuyg'ularing, xayollaring, orzularingga ishon. Taslim bo'lmasdan, umidingni uzmasdan o'zingga ishon. Albatta, qo'lingdan keladi va atrofingdagilar kabi uddalaysan, chunki sen kuchlisan!

O'zingga ishon va harakat qil

Porloq kelajaging uchun hozirdan harakat qil

O'tmishda boy berganlaringga afsus chekma, chunki bu o'tmish – o'tdi-ketdi va qaytib kelmaydi, xuddi sening asab tolalaring singari. Yangi rejalar tuz va ol-dingga katta maqsadlar qo'y.

**Sen buni uddalaysan!**

**Hayotingni birovnikiga moslashtirib qurma.**

**Odamlarning gapiga e'tibor berma va o'z fikringdan voz kechma.**

**So'zining kuchi bo'lgan, to'g'ri yo'ldan yuradigan va o'z fikrini hurmat qiladigan inson bo'l.**

18

**Oila iymondan so'ng senga hadya etilgan  
eng katta xazinadir.**

\*

O'zingdagi bor go'zalliklarni qadrla. Ularni himoya qil, asra. Yaxshi do'sting bo'lsa, unga qanchalar sen uchun qadriligini anglat. Qalbi pok turmush o'rtog'ing bo'lsa, u sen uchun qanchalar qadrli ekanini anglat va ko'rsat. Tinch va baxtli oilang bo'lsa, ular sen uchun bir xazina ekanliklarini anglat. Shulardan biriga ega ekansan o'zingni omadli deb hisobla, chunki yaxshi do'st, suyanishing mumkin bo'lgan turmush o'rtoq va orom olishing mumkin bo'lgan oilangning borligi bu sening baxting to'la-to'kisligidir.



*Sevimli insonlaringni ardoqla!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## OILA BU HAYOTDIR

*Oila bu dunyodagi kichik dunyodir. Go'zal maskanda qadrli insonlar hayajonli daqiqalarni boshdan kechiradigan ajib maskandir.*

\*

Umr yo'ldosh bu hayotning senga bergan tuhfasidir. Turmush o'rtoq bu senga bir umr yo'ldosh bo'lgan, yaxshi-yomon kuningda yoningda bo'lgan, quvonchli kunlaringda quvonchingga sherik, og'ir damda dardingga malham bo'lgan insondir. Ba'zan onang kabi mehribon, ba'zida otang kabi qattiqqo'l hamrohdir.

Onang bu seni borligingcha qabul qiladigan, mehridaryo, so'zlari shifo, ko'ngli ochiq bir insondir. Onang manfaatsiz, minnat qilmasdan asl holingcha seni sevadigan yagona insondir. Onang sirlaringni ishonib ayta oladigan tilsiz bir quduq va xavfsiz boshpanadir. Onang seni baxting va yutuqlaringdan o'zingdan ko'ra ko'proq quvonadigan yagona insondir. Onang birinchi o'qigan kitobingdir. Onang mehridaryo, duosi qabul bo'ladigan mo'tabar zotdir.

Otang bu ishongan tog'ingdir. Qalbidaryo insondir. Ba'zan jahli chiqib qoshlari chimirilsa-da, qalban sen bilan bo'ladigan bir tog'dir otang. G'amga ko'milganingda ishonib suyanadigan bir yelkadir ota. Quvonchingga sherik, dardlaringga malham bir insondir.

Aka-uka jigarlaring bu yoshlikdan birga o'sgan qadrli va mehribon, yaxshi kuningda birdek sevinib, og'ir damlaringda sen bilan birga g'am chekkan yaqin insonlaringdir.

Unutma!

Oilang muhimdir. Oilang bu Alloh in'om etgan eng ulug' va qadrli hadyadir. Oila bu og'ir damlaringda panoh topadigan mustahkam qal'adir. Oila bu erkin nafas olishing mumkin bo'lgan maskandir. Oila bu haqiqatdir – hayotning yolg'onlaridan soxta tabassumlardan, barcha yomonliklardan holi bo'lgan makondir. Oilasiz hayot mazmunsiz, qashshoq bir hayotdir.


Oila a'zolarining hamisha qo'llab-quvvatlovchi, qiyin kunlaringda yoningda bo'lguvchi va seni yaxshi ko'ruvchi insonlardir.

**Onalarning ko'ngli daryo kabi kengdir,  
sevgisi esa pok va beg'arazdir.  
Onalar manfaatsiz va asl holingcha yaxshi  
ko'radigan mo'tabar zotdir.**




Hayotda yo'ling bo'lsa yur, aslo to'xtama. Aytar so'zing bo'lsa, ko'ngildan, yurakdan ayt, jim turma. Ko'rishing, gaplashib ko'ngil yozishing mumkin bo'lgan inson bo'lsa, hech narsani kutmasdan oldiga bor, chunki hayot juda qisqa. Aytmoqchi bo'lgan so'zing bo'lsa ayt, yoqtirgan libosing bo'lsa kiy va yaqinlaringga hamisha ularni yaxshi ko'rishingni ayt.

Vaqt kelib, yo'llaring yopilib, sen so'zlaringni ayto olmay kechi qolishing mumkin. O'sha damda istasang ham bora olmay, so'zlaringni ayta olmay qolishing mumkin. Vaqting borida qilishni istagan ishlaringni bajarishga ulgurib qol.



*Tilga duo yarashar yomon so'zlar emas,  
Ko'ngilga yor yarashar vaqtichog'lik emas,  
Ko'zga hayo yarashar, yomon nazar emas,  
Inson o'zi qadrli so'zlar so'zi emas.*



19

**Sinovlarni bir yuk deb hisoblama va  
sinovlardan qochma.  
Chunki Alloh suygan bandasini sinaydi va  
gunohlarini afv etadi.**

\*

Sinovli damlaringda boshingni tik tut va  
g'amga botma.  
Har safar sinalganingda yig'lash o'rniga qaddingni  
tik tut va chidamli bo'l. Yomonlik uchun o'zingni  
jazolash o'rniga hayotingni tushunib, tahlil qilishni  
o'rgan. Boshingga tushgan kulfatlarni unut.  
Bu, albatta, osonmas!  
Xafa bo'lib, siqilib, muammolaringni hal qila  
olmaysan. Qaddingni tut va oldinga qadam bos.



*Unutma bu dunyo sinovlidir.*

**BARCHASI SENGATALGAN.**

## **HAYOT BIR IMTIHONDIR**

*Allohning iznisiz daraxtdan hatto  
bir barg ham to'kilmaydi.*

*Bu dunyoda hech narsa sababsiz sodir bo'lmaydi.  
Sen bilan sodir bo'lgan har narsada bir hikmat bor.*

\*

Seni vazifang sababini izlab, sirdan voqif bo'lib, kerakli xulosalarni chiqarib, hayotingda qo'llashdir.

Hayot o'tkinchi, u suv kabi oqib o'tib ketadi, daraxtdan to'kilgan barg misoli sendan ketadi. Yillar o'tib umring qisqarayotgani kabi bari o'tadi. Hech o'tib ketmaydi, deb o'ylagan onlaring barchasi o'tadi. Fasllar kabi hayotingdagi yaxshi-yomon kunlar ham almashadi. Baxtli kunlar misoli bahor, aksincha, sinovli, og'ir damlar bamisoli qishdir.

Bari o'tkinchidir, ishon, vaqti kelib yelkangdagi yukdan xalos bo'lasan va yaxshi kunlar, albatta, keladi.

Sabrli bo'l, aslo taslim bo'lma va olg'a qadam bos.

Sinovlarni munosib yengib o'tganlarni munosib mukofot kutadi.

Unutma, har bir qiyinchilik ortidan bir yaxshilik keladi va har bir nihoya bir yaxshilikning boshlanishidir!

Yuragingni qayg'uga ko'mgan xotiralarni o'chirish

uchun ertangi kun bor, kelajak bor. Siqilma, chunki Alloh hech bir bandasiga kuchi yetmas darajada sinov bermas. Qani bo'la qol, oldinga qadam bos.

Unutma!

Barchasi ketma-ket keladi. Yomonlik ketidan yaxshilik, sen kuchli bo'l. Insonlardan xafa bo'lma, ishonchingni oqlamagan biri uchun boshqalardan qasos olma. Hech kim bir-biriga o'xshamas.

Unutma! Har bir ko'ngilsizlik quvonchli damlarga eshik ochar. Sen o'zingni qo'lga ol va kuchli bo'l, har qanday vaziyatni tabassum bilan qarshi ol.

**Sinov eshikdir. Muammolar eshikning kalitidir.**

**Sabr - bu eshikka yo'l.**

**Yo'lni bosib o'tadigan bu - qadamlar.**

**Va yo'lning oxirida, sizni eshik ortida  
kutib turadigan go'zal kunlardir.**

20

**Hech narsa qilmasdan kutish befoyda.  
Orzularingni chin dildan duolaringda so'rab, sabr  
bilan kutsang, albatta, ro'yobini ko'rasan.**

\*

Barchamiz nasib qilsa deymiz. Xayrlisini ber deb  
aytamiz. Hech qanday harakatsiz esa nasib qilsa,  
deb kutib xato qilamiz.

Nasib qilishi bu Rabbimdan orzularing ro'yobini  
astoydil so'rab, shunga mos harakat qilishingdir.

Nasibangga erishish uchun to'g'ri yo'ldan  
yurish deganidir.

Unutma!

Sen xohlagan ish amalga oshmasa, sabr-toqat bilan  
erishasan. Sen duolaringda astoydil Allohdan  
xayrlisini so'ra va sabrli bo'l. Shunda Alloh senga  
qanday go'zal nasibalar atab qo'rganini ko'rasan.



*Nasibangga halol yo'l bilan erish.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **XAYRLISI NASIB QILSIN**

*Alloh Senga bir kun kelib hech kutmagan  
joyingdan pok qalbingga munosib go'zal  
nasibalarni ato etadi.*

**\***

Hech qachon «bunday bo'lsin, shunday bo'lsin», deb qarshilik qilma, doimo eng yaxshisi va eng xayrlisini so'ra. Senga yaxshilik keltiradiganini so'ra. Bila olmaysan, sen istagan orzu senga yaxshiliklar olib kelmas, balki sen istaganing seni g'amga botirib, ko'z yosh to'kishingga sabab bo'lar. Xayrli rizqda umringda ko'rmagan eng go'zal ne'matlar yashiringanini bila olmaysan. Ammo Rabbim har narsani to'g'risini biladi va Sen faqat har narsadan voqif bo'lgan Allohga ibodat qil. O'zingga yoqqan emas, balki xayrli bo'lgan ne'matlarni orzu qil. Qo'llaringni duoga ochib so'ra.

Vaqt o'tib, Alloh bergan ne'matini xayrli va manfaatli ekaniga amin bo'lasan.

Bandasidan so'rama, Allohdan so'ra. Bandasi bersa, minnat qilar va evaziga narsa kutar. Alloh bersa, beminnat bo'ladi, faqat shukurini aytasang bas.

**Unutma!**

Alloh Sen so'ragan barcha ne'matni ato etadi, faqat qanday ne'matni so'rashni bil va go'zal sabr bilan kut.

Unutma!

So'rayotgan ne'matlaringni bunday bo'lsin, shunday bo'lsin, deb so'rama. Allohdan xayrli vaqtda, xayrli ne'mat ato qilishini so'ra.

**Rizq nasiba qanchalar sirli tilsimotdir.  
Rizq ato etish bu bandasi Qo'lidan kelganini  
bajarib, qolganini Allohga topshirishi,  
Alloh nimani xayrli deb ato etsa,  
berganiga shukur qilib rozi  
bo'lishlikni bildiradi.**



21

**Hech kimning dilini og'ritma, dilozor bo'lma.  
Ko'ngillarni sindirib, qalbni vayron qilguvchi  
bo'lma. Oqibati juda yomon bo'ladi va kelajaging  
buni asoratida behuda ketadi.**

\*

O'zgalar haqqiga xiyonat qilma. Birovning haqqi  
birovda qolmas. Boshqalarni ko'z yoshlarini  
to'kilishiga sababchi bo'lma. Dillarga ozor beruvchi  
dilozor bo'lma, pushaymon bo'lasan. Kimga nima  
yomonlik qilsang, albatta, o'zingga qaytadi. So'z berib  
aldama, albatta, seni ham aldab ketishadi. Boshqalarni  
og'ir damda yolg'iz qoldirma, seni ham qiyinchilikda  
yolg'iz qoldirishadi.

Unday qilma!

Bu yo'lingdan qayt!

Ozor bergan insonlardan kechirim so'ra.  
Yo'qsa, hayotingda birin-ketin noxushliklar sodir  
bo'ladi. Badalini hech nima bilan to'lay olmaydigan  
qiyinchiliklarga duch kelasan. Aql bilan ish ko'r.



«O'zgalar haqqini yema va ularga xiyonat qilma».

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## HAR BIR ISHNING JAVOBI BOR.

*Barchaga yomonlik qilganni, yolg'on so'zlaganni,  
yuzingga kulib, orqangdan g'iybat qilganlarni, va'da  
berib va'dasida turmay, qiyin damda seni yolg'iz tashlab  
ketganlarni o'z hollariga qo'y. Zotan, vaqti kelib ular  
barcha yomonliklari uchun Haq qarshisida javob  
beradilar.*

*Sen xavotir olma!*

\*

Allohga topshir! Kuni kelib Senga yomonlik qilganlar har bir yomonliklari uchun birma-bir jazolanadilar. Seni mensimay, ko'rmaslikka olganlar o'z dardlari bilan ovora bo'lib qoladilar. Sening dilingni og'rib xafa qilganlarni, albatta, dillari xufton bo'ladi, chunki bu dunyo hisob-kitobli, har kim qilmishiga yarasha jazosini oladi. Xafa qilganlarni, albatta, ko'ngillari vayron bo'ladi.

Alloh barchamizdan qilgan ishimiz uchun hisob so'raydi.

Xavotir olma! Haqqing boshqalarda qolmas.

Dilingni xufton qilganlar, albatta, jazosini oladilar. Oylar, yillar o'tsa ham, albatta, qilgan yomonliklari javobini beradilar. Hisob bergunlariga qadar vijdon azobi bilan qiynaladilar.

Ishon – U qilgan yomonligi uchun jazo olib g'am chekayotganida Sen huzur-halovatda rohatlanib yasha-

yotgan bo'lasan. O'sha damda u seni qidiradi. Tunda rohatlanib uyquga ketganingda u uyqusizlikdan to'lg'anadi. O'sha damda jazolanishini kutma, albatta, boshqalarga qanday ozor bersa, o'zi ham xuddi shunday g'am chekib jazo oladi.

Unutma!

Boshqalarning dillarini og'ritma, agar og'ritsang uzr so'ra. Uzr so'rash uchun sabab bo'lishi kerak. Ba'zan chin yurakdan aytilgan uzr singan qalbni davolaydi va o'zing ham yengil tortasan. Uzr so'rasang Sen zaiflashmaysan, aksincha, ruhing yengillashadi.

Unutma!


Chin dildan samimiy aytilgan uzr xatong kechirilishiga sabab bo'ladi, shuningdek ko'ngillarga malham bo'ladi va o'rtadagi sovuqchilikni bartaraf qiladi.

**Hayotda har bir bandaning haqqi bor.  
Oxirat bor, hisob-kitob kuni – mahshar kuni bor.  
Jahannam va uning olovlarida azoblanish bor.  
Har damning nihoyasi bor.**



*Biz shaharlar qurdik,  
Ulkan, muhtasham binolarni qad ko'tardik, lekin  
ko'ngillarga ozor berdik va bunda biz adashdik,*

*Yuraklar sadoqatdan ayrildi,  
ko'ngillar soxtalikdan charchadi va  
go'zal chehralar xiyonatdan mahzun bo'ldi.*



22

**Suhbat vaqtida go'zal so'zlardan foydalan.  
Shunday samimiy va rost so'zlaginki,  
suhbatdoshing seni nutqingdan zavq olsin.  
So'zlaring uning qalbiga malham kabi kirsin.**

\*

Muloqot davomida suhbatdan saboq olish muhimdir. Bir inson bilan suhbatlashganda uni nafaqat tinglash, balki so'zlarining mag'zini chaqish ham katta ahamiyatga ega. Muloqot bu har ikki tomonning o'zaro ma'lumot almashinuvidir. O'zaro tushunish yaxshi muloqotning natijasidir. Suhbatlashish jarayonining o'ziga yarasha tartib-qoidalari mavjud. Suhbatdoshing nutqini tamomlamaguncha sen gap boshlama. Gapini bo'lma va uni fikrlaridan chalg'itma. Suhbatdoshing nutqidan ayb izlab emas, balki hamfirk bo'lish maqsadida tingla. Uning fikriga qarshi dalillar bilan hujum qilma.



*Samimiy suhbatdosh bo'!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## U TUSHUNMADIMI?

*Sukut saqla, ba'zan sukut saqlab ichki ovozingga quloq tut. Sukut o'z ichki ovozingni tinglashingga imkondir.*

\*

Suhbat davomida sen ba'zi narsalarni tushuntirishga harakat qilasan, lekin ba'zilar tez tushuna olmasliklari tufayli seni anglamaydilar. Shu payt jim bo'lasan. Sukut saqlash muhimligini, gapirgandan ko'ra sukut saqlash zarurligini tushunib yetasan.

Tushuntira olmaganingdan emas, turli xil insonlarning ba'zilariga nisbatan sukut saqlash kerakligi sababli jim bolasan.

Jim bo'lasan va aytmoqchi bo'lgan gapingni harakat va boqishlaringda tushuntirishga harakat qilasan, chunki ba'zan sukut gapirishdan muhimroqdir.

Ba'zan uzundan uzoq so'zlar bilan tushuntiriladigan vaziyat sukut bilan osongina anglanadi. Xullas, Seni gapirganningda tushunishmasa, sukut saqlashing afzaldir.

Ba'zilar ba'zan sen tushuntirishga harakat qilayotganingda seni rad etar, gapingni bo'lib hurmatsizlik ko'rsatar.

Unutma!

So'zlaringni qadrlaydigan insonlar bilan suhbat-

lash. So'zlaringni mensimay, e'tiborga olmaydiganlar bilan suhbatni to'xtat va sukut saqla.

Ba'zida yaqinlaring seni so'zlaringni tinglashmasa, xafa bo'lasan.

Chunki bu jo'shqin hayotda insonlar kimnidir uzoq vaqt eshitgisi kelmaydi, bunga vaqti ham bo'lmaydi.

Shuning uchun sukut saqlamoq yaxshi – hech kimni bezovta qilmaysan va o'zing ham behuda kuch sarflamaysan.

**Ba'zi insonlar kibri tufayli sening so'zlaringni tinglamas, e'tiboringni va mehnatingni qadrlamas.**

**Undaylardan uzoqlash va o'zingni qutqar,  
chunki bunday insonlar sen kabi mehnatkash va  
halol insonlarni o'z manfaati uchun  
qurbon qiladilar.**



23

**«Umring, har nafasing, sevging,  
sadoqating, ishonchingni  
behuda sarf qilma. Doimo qalbingda ezgu  
tilaklar va orzularni niyat qil».**

\*

Umring davomida ko'p yaxshiliklar qilding, ammo evaziga nonko'rlik qilishdi. Shunday emasmi? Ehtimol bundan pushaymondirsan, ich-ichingdan o'zingni koyib, yuragingda bir otash seni g'azablantiryapti. Shunday emasmi?

Shunday bo'lsa, unday qilma.

O'zingni koyima va o'zingdan jahling chiqmasin, chunki har bir qilgan yaxshiliging behuda ketmas. Kun kelib, hammasi „mo'jiza“ bo'lib o'zingga qaytadi.



*Buni unutm!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## SAVOBLI AMALLARGA SHOSHIL!

*Savob qiluvchi insonlarni doimo qo'llab-quvvatla,  
savob qilmaganlar yaxshilik, poklik, halollik,  
samimiyat, haqiqat kabi tuyg'ularni qaydan bilsin.  
Ular bu tuyg'ularni hech qachon his qilmagan va bu  
tuyg'ular ularga begona.*

\*

«Men bilan sodir bo'ladigan barcha hodisalar mening pok qalbim tufayli sodir bo'ladi,» yoki «Nega qalbi pok insonlar doimo yutqazadilar?» kabi atrofdagilarning so'zlarini eshitib qolasan.

Atrofga boq! Qalbi pok insonlar hech qachon hech narsa yo'qotmaydilar va qalbi qora insonlar hech qachon muvaffaqiyatga erishmaydilar. Qalbingda paydo bo'lgan jarohatlar sening pok qalbli inson bo'lganingdan emas.

Xo'sh, unda nima sababdan?

Muammo sening his-tuyg'u, fikrlaringda va xatti-harakatlaringdadir. Muammo sen barchani o'zing kabi deb o'ylashingdadir. Muammo sen vaziyatni noto'g'ri talqin qilib, halollik tarafdori bo'lishingdadir.

Me'yorni bil! Boshqalarga yaxshilik qilayotganingda senga yomonlik qilishlariga yo'l qo'yma. Yaxshilik qil, lekin sodda bo'lma. Savobtalab bo'l, lekin savob qilish o'ylamasdan harakat qilishni anglatmaydi, savob qilishni sevadigan xayrixoh inson bo'lgin, lekin

hech qachon o'zgalarni sendan foydalanishlariga yo'l qo'yma. Sening halolligingdan o'z maqsadlarida foydalanishlariga yo'l qo'yma.

Me'yorni bil! Aqling yetgan barcha narsada xususan sevgida, g'azabingni boshqarishda, rahm-shafqatda me'yorni bil, zero har narsaning ortig'i zarardir.

Ko'zingni och! Barchani o'zing kabi bilma, Kimdir bilan tanishmoqchi bo'lsang unga o'zing kabi boqma, U o'zini tanishtirgandek, yashashi, so'zlashishi, xatti-harakatlari, g'azabi va quvonchini boricha qabul qil, to'g'ri va noto'g'ri, ijobiy va salbiy taraflarini muhokama qilma.

Atrofga boq!

Qo'lingdan kelganicha halol bo'! O'zing va so'zingning qadri bo'lsin, ammo barchani o'zing kabi samimiy deb o'ylaydigan darajada sodda bo'lma. Halollik soddalikni, sukut saqlashni, ortga qadam tashlashni anglatmaydi.

Boshqalarga nisbatan halol bo'lganing kabi o'zingga ham adolatli bo'l, ya'ni o'z haq-huquqlaringni, histuyg'ularingni, fikrlaringni himoya qil. Halollik o'zingga nisbatan adolatsiz munosabatni yoki noto'g'ri ish qilinganda yashirishni anglatmaydi. Halollik vaqti kelib barcha o'z qilmishi uchun javob berishi demakdir.

Unutma!

Yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarma, Seni aldaganni aldashga urinma, senga yolg'on so'zlaganlardan uzoq tur, seni sodda deb o'ylaganlarga o'zingni xorlatma, Seni sodda deb bilib, xor qilmoqchi bo'lganlarni halolliging bilan lol qoldir. Doimo halol, samimiy, rostgo'y bo'lgin.

Mayli, ular seni sodda deb bilib, yuzingga kulib ortingdan g'iybat qilsinlar, yoningda do'st kabi ko'rinib, ortingdan pichoq ursinlar, ammo Sen ulardan farqli o'laroq to'g'ri bo'l, zero Alloh solih bandalari bilandir.

**Yaxshilik qil!**

**Yaxshilik qilishdan pushaymon bo'lma.**

**Yaxshiligingni suiiste'mol qilgan kishidan  
g'azablanma, u bilmasa ham, qilgan  
yaxshiliklaringni kun kelib, albatta, o'zingga  
qaytaradigan Rabbing bor.  
Buni hech qachon Unutma!**

24

**Sening firklaring sening bog'ingdir.  
Bog'ingga nima eksang, shuning hosilini ko'rasan.  
Yomonlik eksang, albatta, hosiling yomonlik  
bo'ladi. Yaxshilik eksang, hosiling, albatta,  
yaxshilik bo'lishi tayin.**

\*

Atrofingda go'zal insonlarni to'pla, zero ular  
hayotingni yaxshilikka to'ldirar. Tilingni shirin  
qil va yuragingni salbiy fikrlardan uzoq tut.  
Faqat go'zalliklarga boq, shunda hayoting  
ham o'zing kabi go'zallashadi.



*Yaxshilik qil!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## POZITIV BO'U!

*Doimo pozitiv fikrla. Salbiy fikrlar haqida o'ylama.  
Yomon so'zlarni so'zlama, umidsizlanma va  
yomonliklardan nigohingni olib qoch, doimo pozitiv  
o'yla, zero nimani o'ylasang, albatta, shunga erishasan.*

\*

Joningga zarar berib, ongingni zaharlama. Zehningni pokla, zero yomonlik nigohingni xiralashtirar, atrofni ko'rmas darajada ko'zlaringni yopma. Teran fikrla va ko'zlaringni yoshlama, umidlaringni so'ndirib orzularingdan voz kechma, doimo ijobiy fikrla va duolar bilan oldinga qadam bos. O'zingga ishon va ishonchingni qozon. G'ayratingga g'ayrat qo'shib, go'zal sabr qilishni o'rgan. Yomon xayollarga berilma, yaxshi lah-zalar safini kengaytir. Pozitiv firklar ekansan hayoting pozitiv hodisalarga to'la bo'ladi. Yomonlikni o'ylama, hech bir yomonlik abadiy bo'lmas.

Unutma va hayotingni yashnatishni davom et. Hayotni poyezd izlari kabi tasavvur qil. Ba'zan poyezd relslari daryo ustiga qurilgan ko'priklardan o'tsa, ba'zida gul va chechaklar to'la bog'dan o'tadi, ba'zan qorli tog'lardan o'tsa-da, ba'zida qorong'i tunnel orqali olg'a qadam bosadi. Hayotingni ushbu relslar ustidan o'tayotgan poyezd sifatida tasavvur qil. O'zing esa bu poyezdni boshqaradigan haydovchisi ya'ni boshqaruvchisidirsan.

Ba'zida bu poyezd jarlikdan o'tar va ba'zida qirlarni kezar. Ba'zida to'g'ri, ba'zan notekis va ba'zida manzari joylardan o'tadi. Poyezd tubsizlikdan o'tib qorong'i tunnelga kirganda «Men bu poyezdni boshqaruvchisi emasman» deb o'ylab ko'rganmisan. Yo'q o'ylay olmaysan va buni oldindan ko'rib, bila olmaysan, chunki bu yo'l, Sening vazifang yo'lda poyezdni kerakli vaqtda tezlashtirish yoki sekinlashtirishingdadir. Gap sen haqingda, yo'lda emas, yo'lni to'g'irlashga urinma, bunga umring ham, kuching ham yetmaydi. Sen poyezdni to'g'ri boshqarishni nazorat qil, u Sening poyezding, Sening hayoting va hech bir poyezd aslo qorong'i tunnelda qolmas. Qorong'ilikda bir muddat bo'lib, albat, yorug'likka chiqadi.

Hayotingni umidsizlik tunnelida qoldirma, yo'lingda davom et. Yaxshi niyat qil, Nurli kunlar sening duo va ibodatlarining mahsulidir, buni unutm.

Ba'zan o'zingni chorasiz his etasan, go'yo hayoting boshi berk ko'chaga kirib qolgandek. Ba'zan nima qilish kerakligini, qaysi yo'ldan borishni, kimga suyanish mumkinligini bilmaysan, lekin nima bo'lgan taqdirda ham umidingni so'ndirma. Bugun izdan chiqqan har narsa ertaga iziga tushar. Xavotirlanma, qiyinchiliklar ketidan yengilliklar beradigan Rabbing bor!


**Quyosh yuzingni sarg'aytirganda, osmonni bulut qoplaganda, yomg'ir yog'ib, chaqmoq chaqib, ketidan ranglari jiloli kamalak paydo bo'ladi va bu kamalak ko'nglingga taskin beradigan yaxshilikdir. Bir kun, albatta, qora bulutlar tarqab va taqdir senga tabassum qiladi.**

*Doimo yaxshilikni o'yla!  
Xayollaringni yomonlik bilan buzma,  
Umidsizlanma, yo'qsa qalbing torayadi.  
Duoga qo'l och va ibodatga mustahkam bo'l.  
Qalbdan duo qilib, tilingda ifoda et va  
shunda osmon eshiklari sen uchun  
ochilib, yomon kunlar ortda qoladi hamda qayg'u,  
armon,  
nadomat bari seni birma-bir tark etadi.*





*Kim nima deydi, kim haqida gapiradi va boshqalar  
Sen haqingda nima deb o'ylashi bilan ishing bo'lmasin.  
O'z yo'lingda ketishni davom et va Rabbingni unutm.  
Qolganlarni unut, ketsin. Insonlarga gap uqtirishga  
urinma, undan ko'ra hayotingni yaxshiliklar bilan bezat.  
Muvaffaqiyatlaringni ko'rolmaydiganlardan uzoq yur,  
muvaffaqiyat qozonishga harakat qiluvchi inson bo'l,  
yo'lingda senga qarshi chiqqanlarga aldanma, olg'a qa-  
dam tashla. To'g'ri yo'ldan borar ekansan, hech kim Seni  
yiqita olmaydi. Qani olg'a bos, bu yo'l senikidir.*



25

**Haqiqiy muhabbat aslo aldamaydi. Qalbdagi sevgi ko'zlarda namoyon bo'ladi. Oshiq qalbidagi sevgisini bir qo'shiq misoli tilida ifodalaydi. Pok qalbli insonlar shunchalik go'zal oshiq bo'ladiki, bu oshiqlik qancha davom etishini bilib bo'lmaydi.**

\*

Bilaman, Sen go'zal va chin ko'ngildan sevding. O'zingdanda ortiq sevdingki, «Hech qachon boshqa hech kim bo'lmaydi» deya majnun kabi unga bog'landing. Shunday oshiq bo'ldingki, yolg'onlarini, hiylalarini sezmading. Eng muhim bo'lgan bu sevgi uning yetarlicha seva olmagani tufayli yakun topdi. «Nahotki yuragingda yana bir joy bo'lsa» deb o'ylab ham ko'rmading, chunki Sen chin dildan ko'zlaring ko'rmas, quloqlaring eshitmas, aqling yetmas darajada qattiq sevganding. Ammo yanglishding.

Aldanding. Xato qilding, aldanding, lekin Sen aldamading. Aldagan inson, albatta, o'zi ham bir kun aldanadi, umidlari birma-bir so'nadi va kunlari tunga aylanadi. Ammo Sening tunlaring kunga aylanib, umidlaring ildiz ota boshlaydi va quyoshing yorqin porlaydi.



*Yolg'on gapirma, bir kun Seni ham aldashar!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## HAQIQIY MUHABBAT ASLO YOLG'ON BO'LMAS

*Senga bee'tibor bo'lganlarga haddan tashqari ko'p e'tibor berma, yo'qsa e'tiborsiz qolasan, qarshingdagi insonga xuddi o'zi kabi muomalada bo'l va sen tasavvur qilgan inson kabi muloqot qilma, yo'qsa aldanib qolasan. Insonlarni so'zlariga qarab baho berma. Ularning so'zlari harakatlari bilan uyg'unlashganmi shunga e'tibor ber, aks holda aldanib qolasan.*

\*

Taqdir seni bir inson bilan yuzlashtiradi. Seningcha, hayotda undan go'zalroq, undanda aqlliroq, jozibador, munosibroq inson yo'q go'yo. Sen uchun faqat u bor, ko'zlaring atrofdagilarga boqmas, xayolingga boshqa bir insonning ko'rinishi, surati, ifori ham kelmas. Tiling boshqa bir insonning ismini aytmas, yuraging o'zga bir insonni izlamas, chunki u borlig'ingga aylanib ulgur-gan. Kunni yoritgan quyosh, tunda osmonni yoritgan oy va yulduzlar, tog'da ochilgan gullar, osmonda qanot qoqayotgan qushlar hayotingga o'zgacha mazmun anglatyapti. Qalblar qalblarga bog'lanib, nigohlar bir-birini izlaydi, xayollar bir-biriga bog'lanib telbalarcha sevadi.

Orzular osmonida parvoz qilinib, va'dalar va umidlar beriladi, lekin ba'zida buni haqiqat deb o'zingni ishontirishga urinasan. O'zing sevgandek sevadi deb

o'ylaysan va bir nayrang qurboni ekanligingni farqiga bormaysan. Orzungdagidek oshiq bo'lganingni o'ylab, orzularing qurboniga aylanganingni farqlamaysan.

Shunday vaqt keladiki, barchasi xom-xayol bo'lib chiqadi va Sen ishongan tog'larga qor yog'ib, ko'z-yoshlaring daryosiga g'arq bo'lasan. Umid bilan kutgan baxtli kunlaring sarobga aylanadi, chunki Sen sevgan insoning tomonidan aldanib, aldanganingni juda kech tushunib yetasan. Sening ko'p go'zal orzularing bor edi, ammo hafsalang pir bo'ldi va orzularing poy-mol qilindi. Qalbing tilka-pora bo'ldi.

Ko'zlaringdan betinim yoshlar oqib, yuzingdagi tabassum yo'qoldi. Tunlari senga uyqu harom bo'lib, kunduzi porlayotgan quyosh seni o'z tafti bilan isitmadi. Juda xafa bo'lib, o'zingdan nafratlanding, hayotga qiziqishing so'ndi va ishonchni yo'qotding. Vujudingni kuydirayotgan bir alanga otash kabi Seni yoqdi. Har qanday holatda taqdir o'zi in'om etganlarni o'zi tortib oladi. O'sha lahzalarda o'tmishni shirin xotiralarini eslab aldanganingni hazm qila olmay, kunlaringni tunga va tunlarni kunga bog'lab qalbingni tilka-pora qilasan. Ammo shu on yanglishayotganingni, xato qilayotganingni bilasanmi ayt-chi? Ketgan ketib, O'zing qolding va hayotingni buzayotganingni sezmayapsanmi? Seni aldagan insonga siqilib, haqiqiy baxtingga yo'l ochmayapsan. Ishon, Seni aldagan inson Seni hech qachon sevmagan, sevganida aldamagan bo'lardi, ketgan inson uchun achinma.

Unutma!

Ko'nglida Sen uchun joy bo'lmagan yorga aslo ko'nglingni ochma. Qo'llaringni mahkam tutmaydigan

kimsani qo'lidan tutma. Tilida Seni nomingni aytmaydigan kimsani sen ham unut, Seni ko'rishni istamagan insonni Sen ham nigohlaring bilan qidirma. Uni qalbingdan, so'zlaringdan, nigohlaringdan chiqarib tashla.

**Sen uni bilaman deb o'ylarding.  
Lekin hayot davomida Sen tanigan inson tamomila  
o'zga inson ekanini boshingga kulfat tushganda  
anglab yetasan.**

26

**«Oddiy insonni qanchalik qadrlasang, u seni shunchalik pastga uradi, sababi u o'zini tengsiz hisoblaydi. O'z qadrini bilgan inson o'zgalarni ham qadrlaydi, chunki u boshqalarni ham o'zi kabi qadrlidi deb biladi».**

\*

O'z qadringni yerga urma.  
O'zgalarni ham qadrlidi deb bil.  
Qadring qiymatsizlashsa, hayoting murakkablashar.  
Umring davomida riyokor bo'lma.  
Kibrlanib o'zingni boshqalardan ustun qo'ysang, hayot  
seni tuproqqa belaydi.  
Kibrdan uzoq, shafqatsizlikdan yiroq yursang,  
kelajakda qiynalmaysan.



*„Sevganing kabi emas, Sevilganing kabi Uni Qadrla“.*

**BARCHASI SENG A TALGAN.**

## **QADRLANGANING KABI QADRLA!**

*O'zingga ko'rsatilgan hurmat kabi hurmat qil.  
Sevilganing kabi sev va ardoqla. Seni to'g'ri  
anglaganlari kabi Sen ham to'g'ri angla. Seni baxtli  
qilganlari kabi baxt ulash. Ko'p ham emas, oz ham emas.  
Zotan, aziyat chekkan Sen bo'lasan.*

**\***

Bas, yetarlicha ishonch bildirding va imkoniyatlar berding va evaziga nima olding – behuda harakat qilganing qoldi.

Bas, yetar, ortiq o'zingni xarob qilma, vaqtingni behuda ketkazma, yaxshisi qolgan umringni o'zingni baxtli qilishga sarfla.

Har narsaning me'yori yaxshi deb bejiz aytmagan dono xalqimiz.

Hayot ham taomga o'xshaydi – ziravorlarini me'yorida va o'z o'rnida solsangina lazzat olasan.

Insonlarga keragidan ortiq ishonma va boshqalarning foydasi uchun o'zingni qurbon qilma, zotan bu foyda bermas.

Qanchalik o'zingni fido qilmagin bari befoyda – beg'araz mehnating qadrlanmaydigan zamonda yashayapsan.

Alqissa, bu fidoyilikni o'zingga bag'ishla.

Fidoyilikni o'z o'rnida qilsang, har kim o'z o'rnini biladi.

Keragidan ortiq fidoyilik halovatsizlikka, me'yorida qilingani esa saodatga yetaklaydi.

Insonlarning senga munosabati o'zingni qanday hurmat qilishiga bog'liq.

Qaddingni tik tut, o'zingga ishon va keragidan ortiq vaqtingni behuda sarflama.

**Ba'zan ketish seni qadringni oshiradi va  
qaroring to'g'riligini bildiradi.  
Ammo gohida yaqiningdagi baxtni ilg'amay  
qolasan, lekin ba'zida ortga boqmay  
ketish eng to'g'ri yo'ldir.  
Bu onda sen yangi chehralar va  
manzillarni kashf etasan.  
Faqat sen cho'chima – hammasi yaxshilikka.**



27

**Maxfiylik va mavhumlik insonni  
behalovat qiladi**

\*

Sir saqlashni bil va birovlarga sirlaringni aytma.

Yengil tortish maqsadida sirlaringni  
birovlarga aytma.

Sirdoshim deb ishongan insoning kuni  
kelib sirlaringni o'zingga qarshi qo'llaydi  
va seni qiyin ahvolga solib qo'yadi.  
Shuning uchun gaplaringni o'ylab,  
to'g'ri insonlarga ayt.



*Sirlaringni birovlarga zinhor ayta ko'rma.*

**BARCHASI SENGGA ATALGAN.**

## KO'NGLINGNI O'ZGALARGA EMAS RABBINGGA OCH

*Zotan, seni yaxshi tinglaydigan va mushkulingni oson qiladigan birgina Rabbingdir.*

\*

Insonlar qiziquvchandirlar, ayniqsa, birovlarining sirlarini tinglashga juda ishtiyoqlari baland. Sen faqat sirlaringni aytsang bas – nozik nuqtangni bilib oladilar va boshqalar bilan muhokama qiladilar.

Sirlaringni mahkam tut, yo'qsa atrofdagilarga g'iybat uchun mavzu bo'lasan, aslo bunday qilma.

Sirlaringdan o'zgalarning voqif bo'lishi sen uchun xavfli.

Balki tushunib yetmassan, ammo kelajakda azoblar seni bundanda qiyin vaziyatga solib, boshi berk ko'chaga boshlar.

Og'zingning qulfi o'zing bo'l va sirlaring o'zing bilan bo'lsin.

Qulfni bo'shatma, chunki sirlaring o'zing bilan bo'lsa, qadring baland bo'ladi.

Suhbatlash, suhbatdan zavq ol va o'zgalarni tingla, ammo keragidan ortig'ini aytma, zero har bir inson ichidagilarni to'kib soladigan vaqtlar bo'ladi

Suhbatdan biroz bo'lsa-da, rohatlansak ham xavf ehtimoli kam emas.

Agar kimgadir siringni aytmoqchi bo'lsang, avval o'zingning yaqinlaringdan boshla, u ham bo'lsa, otar

onang, turmush o'rtog'ing, aka yoki ukang bo'lsin. Lekin aslo begonalarga aytma. Ichingda yig'ilib qolgan dardlaring bo'lsa, faqat va faqat yaqinlaringga ayt. O'zingni boshqalarga siringdan voqif bo'lib, sindirishlariga yo'l qo'yma

Unutma!

Ko'nglingda saqlab, begonalarga aytmaganlaring: qiyinchiliklaring va sinovli damlaringni hamda yaxshi orzu-niyatlaringni tunda, joynamoz ustida duolaringda ayt.

Kaftingdan duoni aritma, chunki duosiz qalbing so'nadi.

**Yig'la, ko'z yoshlaringni berkitma.**


**To'kib-soch, yig'lashdan qo'rqma. Ko'z yosh to'kishni zaiflik deb bilma.**

**Begonalarga emas, Rabbingga qalbingni och.**

**Zotan Alloh taolodan o'zga panoq yo'q.**

*Bugun yig'lasang, ertaga kulasan, inshalloh, bugun qalbing parchalansa, ertaga huzurlanadi. Bugun ruhing cho'ksha, ertaga xotirjam bo'ladi.*

*Bugun xayollaring chalkash bo'lsa, ertaga yengillik his qilasan. Bugun o'zingni yolg'iz his qilsang, ertaga atrofing to'la yaxshi insonlar bo'ladi. Bu hayot va bu kabi holatlar sodir bo'ladi. Na yomon kunlar va na yaxshi kunlar doimo davom etadi, bari o'tkinchidir, chunki sen sinovdasan bunga ishonib qolma. Rabbingga murojaat qil!*





*Bu ko'ngildir.*

*Ba'zilar da u dasht misoli yashnagan, ba'zilar da esa  
cho'l kabi quruqdir. Ba'zi ko'ngillar oftob kabi qizdirar,  
ba'zilar irmoq kabi sovutar. Ba'zilaridan gullar  
ochiladi, bazilaridan tikanlar sanchiladi.*

*Ba'zilar ning sevgisi har qanday qiyinchiliklarga  
arziydi, ba'zilar ning sevgisi insonni qadrsizlantiradi.*

*Bu ko'ngildir...*

*Go'zal yuzli yoki badavlatni emas, ko'ngli pok, ochiq  
ko'ngillini sev.*

*Aks holda, baxtsiz bo'lasan.*

28

**Hayot bog'ga o'xshaydi.**

**Sen hayot bog'ining bog'bonisan. Bog'ingni atirgullar bilan bezash ham, uni tikanlarga o'rash ham o'zingga bog'liq. Hayotda harakat qilsang, bog'ingda atirgullar gullaydi, bir chekkada turib kuzatsang, hayot bog'ining atirgullari so'lib qoladi.**

\*

Bu hayot senikidir, Senga berilgan hayotda qaror qabul qilish ham sening qo'lingda. Istagan narsangni o'z hayotingga kirita olishing, shu bilan birga istagan narsangni hayotingdan chiqara olishing mumkin. Bu sening hayoting, hayotni senga taqdim etgan seni bog'bon qilib yaratdi. Istasang bog'ingda atirgul yetishtir, istasang zaharli pechaklarni yetishtir. Bu hayotni senga in'om etgan zot seni ozod qilib yaratdi. Unda qul kabi yashash yoki erkinlikda o'tkazish senga havola. Bu hayot senikidir, unda senga rol berildi. Rolingni mohirona ijro etish yoki etmaslik o'zingga bog'liq. Bu hayot senikidir, istasang uni jannatga aylantir, istasang jahannamga. Qarorni o'zing qabul qilasan.



*Oldinga intilib yasha.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **HAYOTINGDAGI BOSH ROL**

*Hayotingda bosib o'tadigan yo'l aniq, manzil aniq.*

*Manzilda qoladigan yo'lovchi aniq.*

*Yo'lovchiga berilgan vazifa aniq.*

*Vazifalari yozilishi kerak bo'lgan kitobi aniq.*

*Rolni mohirona o'ynash yoki o'ynamaslik*

*Senga bog'liqdir.*

**\***

Cheksiz dengizlar kabi aqlingni ishga solib sahnada bir rol o'ynashni istaysanmi?

«Ha» deyapsanmi?

Unda mening so'zlarimga quloq sol.

Mana, Rabbingiz huzurida, hatto chivin qanoti kabi hech qanday qiymatga ega bo'lmagan, buning uchun ko'p qon va ko'z yoshlar to'kilgan foniy dunyo bor. Bu dunyoni teatr sahnasi kabi tasavvur qil. Bir marotaba o'ynalib va hech qachon takrorlanmaydigan ushbu sahna ko'rinishiga xush kelding. Tez orada sahnalashtiriladigan spektakl bu biografiyadir. Aqlingda o'z hayoting sahna ko'rinishning mavzusi bo'ladigan spektaklni tasavvur qil.

Bu spektaklda bosh rol senikidir.

Tepadan sharillab tushayotgan sharsharalar, to'lib-toshib oqayotgan buloqlar...

Ko'm-ko'k osmonda sutdek oppoq qanotlarini qoqayotgan qushlar...

Shoxlarini ibodat qilayotgandek osmonga qaratgan va yerga ildiz otgan daraxtlar...

Archalarning shitirlashi, cho'qqilari qor bilan qoplangan katta tog'lar...

Yer yuzi xursandchilik, hasharotlar, gullar va chechaklar bilan qoplangan. Kunduzi oltin sariq sochini yoygan quyosh... Tunning sultoni Oy... Tunni yoritgan yulduzlar. Va yana ko'plab misollar.

Sening tasavvuringda hamma narsa bezakdir... Har kim o'zi bosh rol o'ynaydigan hayot teatrda, hamma adolatli tomoshabin. Sendan boshqa hamma narsa senga xizmatkordir.

Bularni aslo unutm!

Bugun bu o'tkinchi dunyoda nimani eksang, ertaga shuni o'raman deb o'ylab, qadam bos bu dunyoda.

Hayoting davomida yangi insonlar bilan tanishasan. Ba'zilari hayotingga mazmun olib kirsa, ba'zilari hayotingdan nimanidir olib chiqib ketadi. Ba'zilari kelajagingni go'zal qiladi, ba'zilari, aksincha, barbod qiladi. Ba'zilarini ertangi kuningga olib o'tasan, boshqalarini o'tmishda qoldirasan.

Xohlagan narsangni hayotingda qoldira olasan va xohlagan narsangni hayotingdan chiqarib yubora olasan.

Sen piyon emassan.

Hayotingni bog' deb hisobla. Va sen bog'ingda bog'bonsan...

O'z dunyongizni atirgullar bilan bezash va uni tiknarlarga o'rash o'zingizga bog'liq. Harakat qilsang, hayotingdan huzurlanasan. Agar chetga chiqib, hayotni tomosha qilishni boshlasang, ertaga yashashga



yaroqsiz bo'lasan. Shuni bilki, boltaga arzimaydigan uzumzor tog'ga aylanadi, bolta ko'rgan tog' bog'ga aylanadi.

Axir, bu sening hayoting... hayotingni go'zal qiladigan sening qo'llaringdir. Sen harakat qilsang, hayoting jannatga aylanadi.

Oldinga qadam bosishdan to'xtagan onda, jahannam bo'ladi.

Yana ko'zingni yum.

Go'yo sening hayot sahnang namoyish etilayotgandek...

O'zing haqingda o'yla. Kechagi, ertangi kuning, orzularing, nimaga erishganing va nimaga erishmaganing, ongingdagi quvonch va pushaymonliklaring haqida o'ylab ko'r. Va har safar ko'zingni ochganingda bilki, bu senga berilgan yangi imkoniyatdir.

Unutma!

Hayot bu sinovdir, Insonni sinab-sinab pishiradi. Sinov – bu hayot spektaklining ssenariysi. Hayotni shunchaki sinov ekanligini bilgan odam, hayotda pishib yetiladi. Hayot bu sinov va sinov bu og'riqdir. Og'riq faqat zarar qilmaydi, bir vaqtning o'zida tajribasiz insonni sinovdan o'tkazib tajribali, o'zlarini kuchli bo'lishiga sabab bo'ladi.

Buning uchun boshdan kechirgan azoblardan saboq olish kerak. Ushbu darslardan olingan saboqlar va bilimlar hayotimizga tatbiq etilishi kerak. Hayotdagi sinovlar inson ko'zini ochilishiga sabab bo'ladi. Bu sinovlar insonlarni bir-birini yaxshiroq tushunishiga zamin yaratadi. Inson sinovlar tufayli sinovlarni farqlay oladi. Sinovlar katta tajribadir. Sinovlardan olin-

gan saboq, bilim va tajribamizni oshiradi, shuningdek kelajakda xato qilmaslik imkonini beradi.

**Atrofga boq! Boshingni ko'tarib osmonga nazar sol! Osmondagi yulduzlar va hilol oyga boqib o'yla. Rabbing seni qanday yaratgani va unga osiy banda ekanliging haqida o'yla. Shu olamni yo'qdan bor qilib yaratgan va Seni yaratib rizqlantirgan Rabbing haqida o'yla. Faqatgina sanoqli qalblar Allohni eslaganda huzurlanadi.  
To'xtab qolma! Ruhing hali tanangda ekan,  
Rabbingni esla, ibodat qil!**

29

**«Balki har kimni ko'nglingga sig'dira olmassan,  
lekin o'zingni barchaga sevdira oladigan qalb  
sohibi bo'l».**

\*

Qalb – bu maxfiy bir sir kabi ba'zida seziladi,  
ba'zida esa sezilmaydi.

Qalb bu ulkan olam bo'lib, keng fazoga o'xshaydi.  
Qalb bu inson o'zini kashf etadigan va o'ziga ozor  
beradigan jumboqdir. Qalb bu keng tushunchadir.  
Ko'ngil esa qalbning sohilidir. Hissiyotlar dengizining  
sohilidir. Qalb va ko'ngil bir-biriga monandir.

Ruh bu abadiy hayotdir.

Ruh bu – foni bo'lgan bu dunyoda murda  
ichida qolgan qushga o'xshaydi. Kuni kelib  
u qafasidan uchib chiqadi. Ruhimiz kun kelib  
tanadan ajralib chiqishi haqiqatdir.

Ruh bu libosdir.

Qalb bu bir quti misoli, ko'ngil esa uning  
ichidagi gavhardir.

Tuyg'u bu nafislikdir.



*Yuragingni osmon kabi bezat.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **INSON SAMO KABIDIR**

*Go'zal qalb egalari noyobdirlar.  
Ular quvonch va qayg'uni chin dildan his qiladilar.  
Ular yolg'onlar qurboni bo'lgan holda  
qalblari ozor chekadi.  
Ammo go'zal qalb sohiblari  
o'zgalar uchun qancha iztirob cheksalar,  
o'zlari uchun tajriba orttiradilar hamda  
g'olib bo'ladilar va hech bir  
go'zallik zulmatda qolmas.*

**\***

Biroz fikrda, kel birga fikrlaymiz. Fikrlarimizni foniy dunyo tashvishlaridan to'xtatib, ichki dunyomizga e'tibor qaratamiz.

Kel, Sen bilan biroz hamsuhbat bo'lib dardlashamiz va yerga yuqoridan boqib turgan Samo haqida suhbatlashamiz. Samo bu bag'ridan tunga joy bergan, tunni kunduzga aylantirgan maskandir. Samo bu bag'rida millyardlab yulduzlarni saqlab, Oyni tunga toj kabi kiydirgan ummondir. Goh ko'z yoshlari bilan, gohida oq gullari bilan dunyoni isitgan bir makondir. Samo bu inson sirlariga to'la bo'lgan makondir.

Sen Samoni insonga o'xshatganmisan?

Unda meni tingla!

Samo ruhga o'xshaydi. Ruh kabi bilinmas va ko'p

bezovta qiladigan ulkan bir daryodir. Ruh sening ichingdadir, samo esa ustingdadir. Ruhing ichingda qancha sirlarni saqlaydi.

Samoning kecha va kunduzi bordir. Kun ham o'z o'rnida, tun ham o'z o'rnida almashib, bir-birini to'ldirib turadi. Insonning hayoti ham kun va tun kabidir. Ba'zan iztirob chekar, ba'zan guldek yashnab, sevib sevilar. Ba'zilarni ruhi tun kabi qop- qoradir, ba'zilariniki kunday ochiq va ravshandir. Inson ham samo kabi kun va tunga ega.

Samoning quyoshi va yulduzlari ham bor. Inson quvonchga to'lgan vaqt quyosh kabi nur sochadi, ko'zlari ko'kdagi yulduzlar kabi porlaydi.

Samoning yomg'ir, qor, tuman, kamalak, shamolga o'xshash go'zal hodisalari mavjud. Inson ba'zan quvonchdan, ba'zida g'amdan ko'z yosh to'kishini uchun ko'zlari bor. Osmondan oppoq qor yog'adi. Insonni sochlariga esa oq tushar.

Ajabo, samoning yomg'irdan so'ng paydo bo'ladigan rang-barang kamalagi bor bo'lsa, insonda esa g'amdan keyin oyoqqa turishi uchun pok umidlari bor.

Samo kuchli bo'ronlarni to'zdiradi, inson esa fitnalar uyushtiradi.

Samoning qushlari, tiniq yuzi, issiq harorati bor.

Har bir inson qalbida go'dak yashaydi. Sodda ko'ngil, shirin til, beg'ubor va ma'sum yuzli go'dak yashaydi har bir inson qalbida.

Xullas, inson samoga o'xshaydi. Samoni quyoshi bo'lgani kabi insonning vujudida ham qalbi bor.

Qara, ko'rdingmi? Inson samo kabidir.

Va Unutma!

Samo Seni vujuding kabidir.

Quyosh botganda artofni qorong'ilik bosgandek, qalbi nopok insonni ham yuragi qop-qora bo'ladi. Qalbingni toza tutgin, shunda ruhing quyosh kabi porlaydi.

**Qalb sevgiga makondir. Insonni inson qiladigan uning vijdonidir. Qalbni go'zallashtiradigan bu solih amallardir. Qalbi go'zal insonning chehrasi ham go'zal bo'ladi. Qalbi nopok insonni odamiylik ham tark etadi. Qalbsiz inson ruhsiz jasad kabidir.**

30

**Hammani o'zing kabi teran fikrlaydi deb o'ylama.  
Unutma tilning suyagi yo'q, doimo haq so'zlamaydi.**

\*

Hayot bu bir darsdir.

Har tarafda bir yolg'on.

Odamlar shakldan shaklga o'zgara oladigan misoli bir qo'g'irchoqdir. Aytayotgan so'zlari misoli bir parcha latta. Qarashlarida soxtalik uchquni bor. Inson deb atalmish zot yamoqlar solingan bo'xcha kabidir. Qalbi bo'm-bo'sh, lekin hamyoni to'la bo'lgan odobsizlarni qanday qilib Inson deymiz? Insonmi yoki sirtlonmi ajrata olmaysiz. Bu o'tkinchi dunyoda boylik ketidan quvib, adashib yurganlarni qanday qilib

Inson deb ataymiz?

Zotan, Inson yaralgan mavjudotlar ichida eng sharaflisi va buyugi edi, biroq sharafini mol-dunyoga almashdi.

Shunday qildi.

Ayt-chi, yolg'onmi?

Dunyo aldamchidir...

Bu biz kutgan narsa kabi. Dunyo allaqachon katta yolg'onidir.



*„Xulqing inson kabi bo'lsin“.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## INSON YOMONLIKKA QO'L URDI

*Qilmas, qila olmaydi dema...*

*Bilmaysan aslo, odam bolasidir u, bajarishi kerak  
bo'lganini bajarmaydi, lekin bir nazar solsang,  
bajarmasligi kerak bo'lganini kutilmaganda bajarib,  
Seni lol qoldiradi.*

\*

Inson bir so'zli bo'lmog'i kerak. Tili boshqa, dili boshqa bo'lmasligi kerak. Niqoblanmasdan, u rangdan bu rangga tuslanmasligi kerak. O'z aytgan so'zida turishi kerak. Insoniyligini yo'qotmasligi kerak. Tili boshqa so'zni aytib, ko'zi boshqaga boqmasligi kerak. Qo'li egri bo'lmasligi va yomonlik qilmasligi kerak. Jiddiy bo'lib aytgan so'zining ustidan chiqmog'i kerak. So'zidan qaytmasligi va hayvondan farqli o'laroq, aqlini ishga solmog'i kerak. Har bir ishni fikrlab, o'ylab bajarmog'i kerak. O'ylamasdan bir ishga qo'l urmasligi kerak.

Inson ilon kabi tilidan zaharli so'zlar sochmasligi kerak.

Qarashlarini o'zgartirib, yuzingga soxta tabassum bilan niqob ila boqmasligi kerak. Inson insonligicha qolib, tili va dili bir bo'lgan holda ish yuritmog'i darakor.

Inson marhamatli bo'lishi kerak. Qalbidagi vijdoni bo'm-bo'sh qop kabi bo'lmasligi lozim. Shu bilan birga o'zini unutmasligi va doimo o'zi uchun harakat qi-



lishi lozim. Xullas, inson insoniyligini yo'qotmasligi kerak.

Unutma! Insonni vaqt o'tishi bilan taniysan. Asl yuzini vaqtlar o'tib ko'rsatadi. Kim niqobda va kim asl holida, kim soxta, kim to'g'ri, kim no'to'g'ri, kim haqiqatdan sevgan va kim o'zini sevgandek ko'rsatgan – vaqti kelib hammasi ravshanlashadi.

Shunda Sen bor haqiqatni ko'rsasan va kim bilan qolishni va kimdan uzoq turishni bilib olasan. Oqdan qorani, yolg'ondan haqiqatni osongina farqlay olasan.

Insonlarni vaqt o'tishi bilan taniysan. Ularning odatlarini, his-tuyg'ularini, qalblarini vaqt o'tishi bilan bilib olasan.

Kim qadrli va kim bir tiyinga qimmat ekanligini vaqt ko'rsatadi. Kim chin dildan quvonib, kim zo'raki jilmayib turganini vaqt o'tib farqlaysan. Azob bersada, yig'latsa-da, ko'nglini og'ritsa-da vaqti kelib, albat-ta, tushunib yetasan.

Vaqt o'tishi bilan insonlarni so'zlari, shon-shuhratları, mavqelariga qaramay, haq yoki nohaqligini bilib olasan. Chunki til turli hazil va yolg'onlarni so'zlaydi va uni haqiqat kabi to'g'ri deb boshqalarga ko'rsatadi, lekin bu yolg'onlar insonni o'ziga qaytib keladi. Yolg'on gapirgan inson o'zidan iz qoldiradi va so'zlari bilan yolg'onini tuzatishga harakat qiladi.

Unutma!


Ba'zi ko'zlarga qarab to'y-maysan, ba'zi ko'zlar yolg'onga to'la bo'ladi. Insonni ko'zlari doim haqiqatni aytadi, yolg'on so'zlamaydi. His-tuyg'ularingni qancha go'zal so'zlar bilan ifoda etsang ham ko'zlaring barini haqiqat yoki yolg'onligini o'zida aks ettiradi. Ba'zilar-

ning qarashlari shunchalar yorqinki, hatto yulduzlar havas qilar bu boqishlarga. Ba'zilarning qarashlari esa insonni yo'ldan ozdiradi. Insonlarni haqiqat yoki yolg'on so'zlayotganlarini bilmoqchi bo'lsang ularning ko'zlariga boq.

**Inson qanday g'amgin holatga tushadi.**

**U O'zini sevadigan insonni orqasidan emas, unga ko'ngli yo'q bir boshqasini ketidan yugurgani uchun shu holga tushdi. O'ziga noloyiq insonlarga qo'shildi va o'ziga munosiblarni ko'zi ko'rmadi.**

**O'ziga munosib bo'lmaganlar uchun vaqtini behuda sarfladi.**



*Ey Inson! Qushlarning sayrashini tinglab, qirda  
ochilgan gullarning hididan mast bo'lib, ko'zni  
qamashtiruvchi quyosh nurlarini his qila olasan.  
Tunda osmonda nur sochgan yulduzlarni tomosha qila  
olishing, quvonganingda qo'shiq kuylab, ko'nglingni  
kotara olishing, bularning barchasi uchun Rabbingga  
minnatdorligingni izhor qil.*

31

**Kelajagingni seni ko'nglingga qarab, seni  
avaylaydigan go'zal xulq sohibiga topshir.  
Taqdiringga bugungi kunini qadrlab, kelajakda  
senga do'st bo'ladigan hamroh bitilgan bo'lsin. Har  
safar senga boqqanda ilk marotaba ko'rgandek  
muhabbatni his qilgan hamroh bilan siylasin  
Rabbim.**

\*

Nikohdan izlaganing sevgi bo'lmasin. Izlaganing  
ishonch, hurmat, qadr, sadoqat va bir-biringizni  
tushunish bo'lsin. Haqiqiy ishq shunday bo'ladi.

Haqiqiy sevgi bu yoningda pok qalb egasi, seni  
ardoqlaydigan, senga g'amxo'rlik qiladigan sadoqatli,  
bag'rikeng insonning bo'lishidir. Bu fazilatlarsiz har  
qanday tuyg'u vaqt o'tishi bilan yo'qoladi.

Unutma!

Izlaganing sevgi emas, sevgini saqlab qoladigan go'zal  
axloq sohibi bo'lsin. Qolganlari quruq bir yolg'ondir.



*Suyukli emas, halol umr yo'ldosh bo'li!*

**BARCHASI SENGATALGAN.**

## ALLOH UCHUN SEV

*Har bir insonni ikkinchi yarmi – umr yo'ldoshi bor.  
Umr yo'ldosh taqdirning insonga bergan nasibasidir.  
Kimdir bu nasibaga osonlik bilan erishadi,  
kimdir qiyinchilik bilan.  
Umr yo'ldoshingni topsang, o'zingni  
qadrlaganing kabi qadrla.*

\*

Tanlagan yar ming qarashlaringni quyosh kabi isitib, ertangi kuningga mazmun kiritadigan inson bo'lsin.

Unga bo'lgan muhabbating qalbingda gul kabi ildiz otsin, uning hamrohligidan bag'ring sham kabi erisin va u seni bir bo'laging bo'lsin.

Taqdiringga bitilgani halol bir yoring bo'lsin.

Senga bo'lgan muhabbati bilan ko'nglingdan joy olib, qalbingni zabt etib, xayollari doimo Sen bilan band bo'lsin.

Sen quvonganda birga quvonadigan va yuraklaring bir-biriga hamohang yoring bo'lsin. Shunday yor bo'lsinki, umidlarini Sen bilan bog'lasin. Ikkkingiz ham bir-biringizdan panoh toping. Senga boqarkan ko'nglida ajib hidli bir g'uncha ildiz otsin.

Shunday insonni izla. Ishq yo'lidan yurar ekansan halol yorni izla. Qo'llaring halol, nozik qo'l sohibasining qo'llarini tutsin.

Kulib turgan lablaringga yana tabassum ulashsin. Alhamdulillah halol yorim bor deydigan yorni tanla hayotingda.

Yoring Sen uchun suyana oladigan tog' bo'lsin. Seni tushuna oladigan, tushunishga harakat qiladigan bir inson bo'lsin. Senga hurmati cheksiz, ishonchi qal'a kabi mustahkam bir yor bo'lsin. O'z qadrini bilgan va seni qadrlaydigan, sirlaringni ishonib ayta oladigan inson bo'lsin. Ortga qaytganingda sadoqatidan shubhalanmaydigan bir yor bo'lsin.

Unutma!

Ishq bu o'smirlikda «qiziqish», sevish esa o'smirlik davridan o'tib, yetuklik ifodasidir.

Ishq nafis hid taratadi. Oshiq aql bilan ish ko'rmaydi. Bir narsaga qarab turib ham ko'ra olmaydi. Eshitadi, ammo anglamaydi. Xato qilayotganini bilsa-da, hislarini boshqara olmaydi.

Aqli joyida bo'lsa ham, qilayotgan ishini bilmaydi.

Sevgi bu yurak bilan aql hamohangligidir. Sevgi bu o'yin emas, balki yoring bilan birgalikda barpo etadigan kelajakdir.

Ikki ayro qalb va tananing umumiy fikrlar bilan hayot kechirishidir.

Ishq bu bir maskanda gullab-yashnashdir.

**Masalaning mohiyati bu sevish yoki sevilish emas. Sevish yoki sevilish faqatgina sababdir. Masalaning mohiyati taqdir ikki yoshning bir-biriga munosib juftini topishidadir. Duo qilib, Allohni zikr qilib, amallarni eng go'zalini bajarib Allohga yaqin bo'lishdir.**

32

**Hayot ma'nosini ko'p izladim va bunga deyarli umrimning yarmini sarfladim. Endi angladimki, umrni ma'no izlab emas, faqat his qilib yashash kerak ekan xolos.**

\*

Ey inson unutma

Gunoh katta yukdir va oxiratda juda zararlidir.  
Dunyo ishlariga chalg'ima va gunoh qilma, yaxshisi  
Rabbingga ibodat qil va og'ir gunohlaringdan  
ozod bo'l.

Ko'nglingni kaftingdagi duoga to'kib soch, tunlari  
ibodatingda yolvorib so'ra va fikr-u zikringni Qur'oni  
Karimni mutolaa qilishga bag'ishla.  
Seni yaratgan va yagona panohing bo'lgan Rabbingga  
yalinib-yolvor. Chunki u kechirguvchi va kechirishni  
juda yaxshi ko'rguvchi zotdir.

U senga eng xayrlisini va halolini nasib etadi,  
sen faqat tilasang bas. Rabbing yo'llaringni ochadi,  
chunki u zot bandalariga juda marhamatlidir.

Hadeb taqdiringdan noliyverma.  
Hayotingni yaxshi tomonga o'zgartir.



*Barchasi o'z qo'lingda.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **MO'JIZA SODIR BO'LISHINI KUTMA.**

*Aksincha, o'zing hayotingni quvonchli damlarga  
boyitishni o'rgan.*

**\***

Ey inson. Biroz o'zingga kel, atrofga boq. Shu shiddat bilan oqayotgan daryolarga qara. Ey qarashlarida shu foniy dunyoni istagan, tuproqdan yaratilgan inson.

Ey dunyo ahli va shu dunyo xirsini xohlagan odam bolasi, uyal shu holingdan.

Bas yetar, qilgan gunohlaringga tavba qilish vaqti kelmadimikan?

Ey inson, ortinga boq va bu kuchli oqimni his qil.

Bu dunyo yana bir bor qaytib keladi deb o'ylama, bu dunyo o'tkinchi va sinovlidir.

Yer aylanadi, sening boshingni ham aylantirib yuboradi va tabiiyki vaqt o'tganini bilmay qolasan.

Ba'zi insonlar bu dunyo vaqtichog'liklariga juda ko'p vaqt ketgazadilar, ammo hayot shavqatsiz – behuda sarflagan har bir vaqtning badali juda og'ir bo'ladi.

Ey inson,

Ortingga boq va ovozing boricha baqir va shunday de:

Bu foniy dunyoda barchamiz mehmonimiz va kuni kelib, albatta, barchamiz Alloh taoloning huzuriga qaytamiz.



Bu dunyo o'tkinchi, foniyl va sinovlidir.

Foniyl bo'lgan bu dunyoda abadiyl yashayman deb o'ylama.

Kuni kelib barchamiz bir manzilga – qabrga kiramiz.

Ey inson, vaqting bor ekan nafsingga aldanib, bu dunyo ishlariga chalg'ib qolma.

Uch kunlik dunyo payida bo'lib, oxiratingni barbod qilma. Unutma, o'lim haq va bir kun hammamiz boqiy dunyoga ketamiz.

Joning kaftingdagi misoli yaproqday tanangda hilpiraydi.

Kun kelib, qattiq shamol esib, yaproqni uchirib yuborganday sening joning ham uziladi. Ey inson, qalbingni, qo'lingni haromdan yiroq tut va harom ishlariga aralashma. Dunyo ishlarini deb oxiratingni barbod qilma. Mehribon Rabbim deb qalbingdagi istaklarni kaftingdagi duoga to'kib soch.

Qalbingni pokla, duo ila huzurlan. Unutma, bu dunyoda mehmonsan.

Yomon yo'ldan yurma. Go'zal bog'larda bulbul kabi huzurlana olarkansan, nega o'zingni azobli o'tlarga tashlashing kerak?

Jannatlarda halovat topa olarkansan, nega o'zingni otashli jahannamga loyiq ko'ryapsan? Birodar vaqting bor ekan, bular haqida yaxshilab o'yla.

Ba'zida hayot senga yaxshi damlarni taqdim etadi, ba'zida esa yomon xotiralarni.

Ammo sen o'kinma. Hayotning go'zal ne'matlardan bahramand bo'l.

Ammo bu foniyl dunyoning vaqtichog'liklarini Jannatning abadiyl huzuriga zinhor almashma. Shirinso'z

va ikkiyuzlamachi soxta insonlarni pok qalbingni qoralashlariga yo'l qo'yma.

Dunyo tikanli gul misolidir. Go'zal hid taratadi, ammo ushlashni istaganingda tikanlari bilan azoblaydi.

**O'zing biroz o'yla.**

**Hayoting, qilmishlaring, orzularing va qilayotgan harakatlaring haqida o'yla.**

**Va ko'zlaringni ochganingda har bir yangi kun – bu senga berilgan yangi imkoniyat ekanligini unutma.**

33

**Insonlar senga yaxshi muomalada bo'lishlarini  
istasang, avval  
o'zingni sev va qadringni bil.**

\*

Kuchli bo'! Baxtli bo'! Jim turma!  
Suhbatlash va suhbatdan zavq ol!  
Boshqalarni tinglab, o'zingni unutib qo'yma!  
Qalbingga quloq sol.  
Boshqalarga taqlid qilib emas,  
o'z hayotingdan zavqlanib yasha.  
Seni qadrlamaganlar orasida qolma, seni baxtli  
qiladigan insonlar yonida bo'l.  
Ishon!  
Shundagina hayotingni mazmunli  
va zavqli kechirasan.



*O'zing istagan hayotda yasha!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **QADRLI VA SEVIMLISAN!**

*Yaxshi insonsan!*

*Mehribonligingni suiiste'mol qilganlardan uzoqlash.  
Quvnoqsan va atrofdagilarga quvonch bag'ishlaysan!*

*Odoblisani va odobsizlarga o'zingni xafa  
qildirib qo'yaysan!*

*Sevimlisani va har bir narsani yaxshi tomonini qidirasan!  
Koshki shularni unutmang edi...*

**\***

Nega har safar mag'lub va mahzun bo'lasan bilasanmi?

Chunki aslida yomon bo'lgan, lekin yaxshilikni niqob qilib olgan insonlarni farqlay olmaysan. Chunki ishonch qozonishni istab insonlarga ishonasan.

Chunki har safar boshqalarning halovatini o'ylab o'zing haqingda unutib qo'yasan. Chunki juda ochiq insonsan va hech sir saqlamaysan.

Chunki yolg'iz qolishdan qo'rqasan va qalbingdagi haqiqat nidosini har gal so'ndirishga, quloq solmaslikka harakat qilasan.

Har qanday holatda: seni xafa qilsalar ham, qalbingga ozor berib tashlab ketsalar ham, hammasi yaxshilikka deb ahamiyat bermaysan.

Yo'qotyapsan!

Chunki boshqalarning so'zini o'zingnikidan ustun qo'yasan.

Ortingga boq va seni qadrlamaydigan insonlarni qalbingdan chiqar.

Ortingdan choh qaziydigan va sotqin insonlardan voz kech.

Xato va kamchilikni avval o'zingdan izla.

Balki o'zingdan boshlash – eng to'g'ri yo'ldir.

Biroz o'yla, o'zing xato qilmaguningcha boshqasi senga yomonlik qilmaydi.

Yo'qotyapsan!

Chunki boshqalarni ko'ngliga ozor yetkazmaslik uchun o'z halovatingdan voz kechyapsan. U xafa bo'lmasin, deya o'zingni qurbon qilding.

Qalbiga azob bermay yig'lmasin deb, yig'lading, ammo yig'latmading.

Qadringni bilmadilar, ammo qadrlashdan, ardoqlashdan to'xtamading.

Bevafolik qildilar, nonko'rlik ham ko'rding, lekin barchasiga ko'z yumding va insonlarning yomonliklarini pok qalbing bilan berkitding.

Ammo bir narsani unutma – o'zingga ham adolatli bo'l, balki birovlariga zulm qilmassan, lekin o'zingga zulm ravo ko'rgan bo'lasan. Voz kech! Hammasiga javobgar bo'lma!

Biroz ular ham mehnat qilsin, ovora bo'lsin. O'zingni hadeb o'qqa-cho'qqa uraverma. Yolg'iz qolishdan birovni yo'qotishdan qo'rqma.

Ba'zan Allohga tavakkal qilishni va hammasi yaxshilikka deyishni bil.

Sening eng katta xatong bu seni mehnatingni va mehringni suiiste'mol qilganlar bilan aloqa qilganingdir. Hayotingdan bunday insonlarni chiqarib tashlashing, bu o'zingga qilgan eng katta yaxshiligingdir.

Barchaga emas, balki kerakli insonlarga ishonish-  
ni o'rgan.

Me'yoridan ortiq ishonch huzursizlikka, me'yor esa  
halovatga yetaklaydi.

Shu muhim omillarni unutma!

**Saviyasi past insonlarni ko'klarga ko'tarma.**

**So'zlari salmoqsiz insonlarning gaplariga quloq  
solma va iloji bo'lsa bu kabi insonlar bilan  
muomala qilma.**

**Yomon yo'ldan yuradigan va egri insonlardan qoch.**

**Yo'qsa hayotingni barbod qilgan bo'lasan.**



*Xafa bo'lishing va qiyinchiliklaring butun umr davom etadi deb hisobladingmi?*

*Seni og'ir damlaringda tashlab ketgan, ishonchingni oqlamagan va qadrlamaydigan insonlardan yaxshilik yoki bir xayr kutdingmi?*

*Yo'q! Bas qil!*

*O'tmishda yashashni bas qil!*

*Sen istagan insonlarning sevgisi va so'zi samimiy deb o'ylama.*

*Mehr, e'tibor va shirinso'zni seni qadrlaydigan insonlardan izla.*

*Yo'qotganlaringga afsus qilma.*

*Hamma narsada bir xayr bor.*

Hech kimga biror-bir narsani isbotlama.  
Zotan tushungisi va ishongisi kelgan inson o'zi  
anglab oladi.

Isbotlashga uringaning sari seni sofliging va  
halolligingdan o'z manfaati uchun foydalanadiganlar  
juda ko'p va shunday zamonda yashayotganingni  
unutma.

Boshqalarga sirlaringni aytma. Sening oldingda  
yuvosh va begunohdek ko'rinib, sirlaringni o'zingga  
qarshi quroldek qo'llaydi.  
Ishonch borasida juda ogoh bo'l, chunki ishonchning  
ko'pi ko'zlarni ko'r qilib qo'yadi, o'zi esa shubha va  
gumonga olib keladi.





34

**Kunlar daraxtdagi yaproqlar birin-ketin  
to'kilgani kabi o'tib ketadi.  
Vaqt suv kabi shoshib shiddat bilan oqadi.  
Bari ortda qoldi deb shukur qilasan.  
Faqat sabr qilsang bas.**

\*

Sen bo'lmayapti, qo'limdan kelmayapti, deb mahzun  
bo'lma – Alloh yo'llaringni ochadi.  
Sen umidim qolmadi dersan, ammo Rabbing senga  
eng xayrlisini tayyorlab qo'ygandir. Sen aslo qo'limdan  
kelmaydi deysan, lekin Alloh taolo senga kuch beradi.



*Sen Rabbingga ibodat qilib ishonsang bas.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **HAYOTING BIR KUNDA BARBOD BO'LMADI**

*Bir kunda tiklanishini kutma.  
O'tmishingni bir onda yashamading va  
kelajagingni bir lahzada o'zgarib ketadi,  
deb o'ylama.  
Bundan sira xafa bo'lma, aksincha  
quvonchli kunlaring hali oldinda.*

**\***

Quvon, quyosh charaqlab osmonda go'zal nur taratadi va qalbingga o'zgacha iliqlik bag'ishlaydi. Qushlarning go'zal sayrashidan zavqlan.

Quvon, qishdan chiqqan tuproq kabi va to'rt tomoni nafis gullar kabi bezangan bog' misoli quvon. Sening oy jamolingga ko'z yoshlar va mahzunlik yarashmaydi.

Zavqlan, chunki sen ham insonsan va baxtli bo'lishga haqlisan.

Quvon, gul yuzingdan tabassum arimasin.

To'rt fasl almashgani kabi hayotda ham har xil onlar mavjud.

Qish fasliga o'xshash sovuq damlarni boshingdan kechirishing tabiiy – qirovli qorlari ila azoblaydi. Lekin iliq bahori borligi haqida unutma.

Bahor fasli hayotning iliq damlarini eslatadi, u juda nafis va samimiydir.

Hayotdan zavqlan va aslo mahzun bo'lma.

Zotan sen insonsan va hamma kabi baxtli bo'lishga haqlisan.

Qish fasli – qiyinchiliklar seni ezg'ilyaydi, qiynaydi, ammo so'ng ma'yin va nafis bahor keladi. Vaqti kelib barcha qiyinchiliklar bekorga emas balki kelajakdagi baxting uchun ekanligini tushunib yetasan.

Unut va hayotdan bahramand bo'l.

Kech bo'lmasidan voz kech.

Ammo o'zligingdan voz kechma, chunki umr insonga bir marotaba beriladi va uni albatta, munosib va mazmunli yashashga harakat qil.

Qani harakat qil, baxtli bo'l.

Umidingni so'ndirma, quyosh chiqadi va qiyin kunlaringning o'rniga quvonchli kunlaring keladi.

O'tmishni unut, buguning bilan yasha, atrofdagi go'zalliklarga boq.

Yomonlikni boshdan kechirganingda, yoqtirmagan narsalaringni eshitib qolganingda va birovni sog'inaningda yolg'izlik haqida o'ylama.

Allohning marhamati va muqaddas kalomini unutma, kun kelib hayotingda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, lekin baxtingni kutib emas, balki izlab yasha.

Baxtli yashashga sabab va omillar izla, shundagina hayotingni armonlarsiz yashab o'tasan

**Har bir narsani xayrini va hikmatini izlab yasha.**

**Yiqilsang tur, qiynalsang muammo yechimini top.**

**Yolg'onlarga aldanmasdan sev bu hayotni.**

**Sinovli damlarda kuchli bo'lishni o'rgan.**

**Qiyinchilikdan so'ng bir yaxshilik kelishini  
unutma.**

35

**Ishqdan qalblar, boqishlar, ruh va tillar charchadi.  
Sevarkan ozor chekarkan inson.  
Sevarkan o'rtanadi bu ko'ngil.  
Aslida ishq bog'ida sevgi izhor qilishni  
kutardi bu ko'ngil.**

\*

Uni sevmadingmi?  
O'zingdan ko'ra uni ko'proq sevding.  
Ammo siqilding, shunday emasmi?  
Seni sevganingdan xabardor bo'lib, u o'zini yengilmas  
his etardi. Ikkingizning ko'nglingiz bog'langan edi.  
Sen ishonganing sari u o'zini yo'qotdi. O'zligingdan  
kechib har on uni e'zozlading, ammo u senga ozor  
berdi. Sevarkansan u o'zini o'yladi.  
Shunday bo'lmadimi?  
Xavotirlanma, ortiq hech kim xafa qilolmas seni.  
Yolg'on mubabbati bilan senga ozor berolmaydi.  
Yolg'onlari bilan hayotingni barbod qila olmaydi.  
Hamda kim qattiq sevishini va sevilishini anglab  
yetding, shunday emasmi?



Harom aralashtirmasdan sev!

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **KETGANNING O'RNIGA BOSHQASI KELAR**

*U faqat qo'lingdan tutmaydi,  
balki qalban  
ko'nglingni his qiladi.  
Chunki qo'lingdan tutgan inson kun kelib,  
eng kichik qiyinchilikda qo'llaringni  
qo'yib yuboradi.*

**\***

Yolg'izlik Allohga xos, Alloh hammani jufti bilan yaratgan. Inson umri davomida umr yo'ldoshini izlaydi. Izlash jarayonida turli kimsalarni uchratadi va «mana o'sha inson, meni umr yo'ldoshim va shunda to'xtalaman,» deb o'ylaydi, lekin vaqt o'tib, yanglishganini anglab yetadi.

Yaqin deb o'ylagan insoning kuni kelib tashlab ketadi – qalbing og'riydi, azoblanasan, ammo ketishi kerak bo'lgan insonlarni qo'yib yubor.

Taqdir ba'zida hayotingdan keraksiz insonlarni ko'nglingga ozor bermaslik uchun chiqarib tashlaydi.

Ammo buni sen har doim ham bilmasliging mumkin.

Ishon baxtli kunlaring hali oldinda.

Ketganlarga achinma, yaxshisi kelayotganlarga e'tiboringni qarat.

Yo'qotganlaringning o'rnini go'zalliklar bilan to'ldir.  
Dunyo yaxshiliklaridan umidingni uzma.

Kunlar, haftalar va ehtimol oylar o'tadi, lekin albatta, u kun keladi. O'sha kun kelganda, Sen o'zing sevgandek kuchli sevadigan insonni uchratasan. O'tmishga boqib, Sen bilan qolmagan, seni tark etgan inson yoningda qolmagani uchun shukur aytasan.

Ishon! U kun keladi. Qalbingga ozor bergan, ko'z yoshlaring to'kilishiga sababchi bo'lgan, tuyg'ularingni poymol qilgan, xayollaringni chalkashtirgan insondan uzoq ketishing xayrlidir. Seni baxtsiz qilib ketgan inson o'rniga baxtli qiladigan boshqa biri kelishi tayin. Baxtsiz damlaringni unut va kelajak uchun o'zingga ishonib umid qil.

Biroq atrofga boqsang, hayot go'zal insonlarga to'la ekaniga guvoh bo'lasan. Bugun ketganiga xafa bo'lgan insoning ertaga yo'q bo'lganidan sevinasan, chunki taqdir nohaq ketganning o'rnini yaxshirog'i bilan to'ldiradi va kelgan inson qayg'uni baxtga aylantiradi.

Unutma!

Sababsiz daraxtdan hech bir yaproq tushmas. Hayotni bir daraxt misoli, insonlarni esa barg deb bilgin. Daraxtdan sarg'ayib tushgan har bir barg o'rniga yam-yashil barglar unib chiqmaydimi, ayt. Ishon, hayotingga kiradiganlar hayotingdan ketganlarni izlatmaydi. Shuning uchun hayot daraxtini sog'lom tutmoqlikka harakat qil. Taqdiringdan ketganlarga aslo achinma. Ketganlarni ortidan achchiq ko'z yoshlaringni to'kma. U bunga loyiq emas. Ishon xafa bo'lishingga arzimaydi. Bu hayotda o'rnini bosa olmaydigan ko'p insonlar bor, masalan, onang, otang, lekin qolganlarning o'rnini bosadiganlar, albatta, topiladi.

**Ba'zilar Seni borlig'im bilan sevaman,  
deb aytardilar. Ba'zilar kichik bir ayb tufayli Seni  
xuddi hayotida bo'lmagani kabi unutar va yana  
boshqasi esa arzimagan sabab tufayli ham seni  
boshqatdan kashf etib, qattiq sevadi. Ha shunday,  
kichik bir ayb tufayli ajralib ketiladi va kichik bir  
sabab tufayli seni sevadilar.**

36

**„Ayol inoyatdir, avaylab sevish kerak“.**

\*

Ayol ishqni orzusidan izlaydi.  
Erkak esa ishqni go'zal ayoldan izlab yanglishadi.  
Na ayol sevgisiga erishadi va na ozor bergan ayoli  
yonida qoladi.



*Ayol omonatdir, unga xiyonat qilma!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**



## AYOL G'AZALDIR

*Ayolni ko'ngliga bitilgan bir sevgi g'unchasi bo'l.  
Kaftlaridagi duosi bo'l.  
Xayolida sog'inadigan insoni bo'l,  
lekin aslo tilidan tushgan nolasi bo'lma.  
Ko'ngli qolgan va duoyi bad qilgan insoni bo'lma,  
yo'qsa baxtsiz bo'lursan.*

\*

Ayol nimani xohlaydi? O'zini pulga sotib, qimmatbaho buyumlar, oltin-u kumushlarga qul bo'lishni hech bir ayol xohlamas.

Ayol omonatdir, uning qadriga yetadigan xojasi bo'lishini istaydigan bir xazinadir. Ayol misoli nozik hissiyotli, teran fikrleydigan daryodir.

Ayol qadrlidir va uni qadrlashlarini istaydigan xilqatdir.

Ayol misoli bebaho gavhardir. Toshleri olmos, boqishlari gavhar, ko'z yoshlari misoli durdir. Kulgulari quyosh, ovozi kuy, sochlari misoli ipakdir. Tuyg'ulari misoli toshqin daryodir.

Ayol zabt etilishni istaydi, ayolning ko'ngli bir dengiz misolidir. Qa'ridagi marvaridlarni fath etish qiyyin bo'lgan daryo misolidir ayol. Ammo dengizga tomchilagan yomg'ir tomchilari kabi ayolning ko'nglidan joy olgan kimsaga ayol bag'rini ochar. Chunki ayol sevsa, u o'zini baxshida etadi.

Ayol suyukli bo'lishni xohlaydi. Ayol misoli g'azaldir, ayol tog'da o'sgan gul va ko'ngilda yashagan ishqdir. Nigohlari kuyi dillarga xush yoqqan kuydir ayol.

Ayol bu ko'rganiga ishonishni istaydigan xilqatdir.

Erkak hayotning mashaqqatlaridan qochib bir panoh qidirgan ayolni tushunmaydi. Erkak ayolga tirgak va ishongan tog' bo'lsa, ayol kelajagini u erkak bilan quradi. Ayol azob chekmaslikni, ko'ngli yaralanmaslikni, ko'zlari namlanmaslikni istaydi.


Ayol hurmatli va baxtli bo'lishni istaydi va erkak qo'llarini mahkam tutib, uning yonida bo'lishni xohlaydi. Ko'rinishi xonimlardek bo'lib, chiroyi, go'zal xulq bilan sug'orilgan, nigohlari turmush o'rtog'idan o'zgaga qadalmagan, ovozini turmush o'rtog'idan o'zgaralar eshitmagan Ayol boshqa hech narsani istamas.

Unutma!


Ayolga, bolaga, yoshi ulug'larga, yoshlarga yomonlik qilmang. Chunki ayol kelajakdir, bolalar esa ertangi kunimiz, ularga nisbatan hech qanday yomonlik qilmang. Ayol nafsni qondirish uchun, reklama uchun yaratilgan mavjudot emas.

**Ayol jamiyatning quyoshidir, ayollar va bolalar ustidan kuladigan jamiyat barbod bo'lishga mahkumdur.**

**Tarbiyali qizlar o'z qadrini biladilar.  
Ular o'zlarini yomon ko'zlardan hamisha  
asrab-avaylab yuradilar.**



*Barchani yomon deb hisoblama. Uning  
ko'zlariga dog' tushirma, ko'nglini qaro qilma,  
aqlini shoshirma. Yolg'on so'zlab dilini vayron qilma.  
Senga jon fido qilmaganlarga do'st bo'lma.  
Sevgini farqiga yetmaganlarga sevgingni  
qadrsizlantirma. Odobsizdan hurmat kutma. Qadrni  
bilmaganlardan yaxshilik kutma!  
Yaxshilik kutma, o'zingga jabr qilasan!*



*Azob berish, xafa qilish, yig'latish va aldab ketish bugungi kunda urfga kirdi. Bu odatlar insonni odamiylikdan chiqaradi. Aksincha, inson azob berish o'rniga baxtli qilish, yig'latish o'rniga kuldurish, aldash o'rniga esa yor bo'lishi inson deb atalmish sharaflı nomga sazovor bo'lishni bildiradi.*

37

**Avvalo, aql bilan so'zla, so'ng vijdongingga havola qil. Aqling yetmasa, vijdonging yoqlamasa, aslo bu so'zni aytma!**

\*

**Fikrla!**

**Avval diqqat bilan o'yla.**

Ijobiy va salbiy tomonlarini, zarari va foydasini yaxshilab o'yla. Hayotda fikrlamasdan qadam bosma. Keragidan ortiq fikrlab, o'ylab hayotdan orqada qolma.

**Ko'p o'ylab qat'iyatsiz bo'lma.**

**Unutma!**

Ko'p o'ylash, o'ylamasdan harakat qilish kabi muammolar keltirib chiqaradi. Faqat diqqat bilan fikrlaringni duoga aylantirib olg'a qadam bos.



*Avval o'yla, keyin so'zla!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **O'ZGALARNI EMAS O'ZINGNI O'ZGARTIR**

*Kim biladi!*

*Ehtimol ko'z o'ngimizda ba'zi insonlarning  
qilgan xatolariga ko'z yumib, bee'tibor bo'lib, o'zgaradi  
deb noto'g'ri fikrlashimiz  
hayotimizni murakkablashuviga  
olib keladi.*

**\***

Aslida inson o'zini birinchi xatoda, ilk va'dasini ustidan chiqmaganida, ilk yolg'on so'zlaganida, ilk azob berganda, ilk ishonchsizlikda, ilk g'azabda ko'rsatadi.

Balki ilk marotaba-ku, deb e'tibor bermassan. G'amxo'rlik qilib xatosiga ko'z yumarsan. Vaqt o'tib yana o'sha xatoni qilganida ko'rmagandek ko'z yumas. Keyingi safar yaxshi bo'ladi deb fikrlaysan.

Ammo bunday qilma! Xatolarga ko'zingni yumib e'tiborsiz bo'lma. U o'zgaradi deb o'ylama, aksincha, qadrli vaqtingni o'zingni o'zgartirishga sarfla. Bir xatoni takror qilgan kimsalar beqaror, ikkiyuzlamachidir. Ikkiyuzlamachilar o'zgarib olsalar, sen ham ularga mos bo'lib o'zgar. Ular na sen kabi qolar va na o'zligini qadrlar.

Beqaror insonni o'zgartirsangiz ham, u butunlay o'zgarmaydi. Uning qat'iyatsizligi ertami-kechmi yana qaytadi.

Atrofga boq! Ko'rib tinglashga harakat qil, bir insonni boricha o'zingdan qo'shmasdan bilishga harakat qil.

Hech kimga ortiqcha baho bermasdan, yoki qilgan katta xatosini kichik sanab bee'tibor bo'lmasdan muomala qilishni o'rgan. Kim bo'lishidan qat'i nazar qarshingdagi insonni boricha qabul qil. Ko'p ham emas, kam ham emas o'zini tanishtirgani kabi muomalada bo'l.

Narsalarni, hodisalarni talqin qilmasdan qanday bo'lsa shundayligicha qabul qil.

Aybni yashirishga harakat qilma. Na o'zingdan bir ma'lumot qo'sh va na berilgan ma'lumotni berkit. Boricha qabul qil.

Voqea va hodisalarni boricha qabul qil, ya'ni ularni ko'pirtirma va oshirib yuborma.

Biron-bir insonga aytib berayotganingda ham o'zingdan hikoya qo'shmasdan va bo'rttirib so'zlab berma.

Oddiylikicha ko'rganing kabi qabul qil va baho ber, shunga qarab harakat qil – harakating birovni o'zgartirish uchun emas, balki o'zingning foydang va saodating uchun bo'lsin. Ba'zan birgina xatong butun qilgan harakatlaringni yuvib yuborishi mumkin.

Diqqatli bo'li!

Inson mukammal zot emas – buni unutma.

Har kim ham xato qiladi, ammo asosiysi bundan saboq ola bilishdir.

Gohida xato qilish foydali – bu insonga tajriba beradi va irodasini mustahkamlaydi.

Insonlarni ajrata bilish muhimdir, bo'lmag'ur insonlarning ortidan chopma.

**Zakiysan – salmoqsiz va sa'viyasi  
past insonlar bilan do'stlashma.  
Qalbi pok insonsan – ichi qora va  
baxl insonlar davrasida bo'lma.  
Halolsan – g'irrom va ikkiyuzlamachi  
insonlarga teng bo'lma.**



38

**Ibodati yo'llaringni ochadi,  
shukur esa yo'llaringni go'zallashtiradi,  
sabr va harakat esa maqsadingni  
yaqinlashtiradi.**

\*

Uzoqlardan izlama baxtni.  
O'zgalari hayotidan izlama baxtni.  
Baxt o'z qo'lingda.  
Faryodingni duolaringga to'kib soch.  
O'zgalarga noligandan ko'ra, Rabbingga ibodat qil.  
Zotan, Allohdan o'zga panoh yo'q.



*Ibodatini qilmagin kanda!*

**BARHASI SENGATALGAN.**

## **KAFTLARINGDAN DUONI ARITMA**

*Kaftlaringdan duoni aritma va ibodatingni  
kanda qilma, hech qachon endi kech dema.*

*Alloh kechirguvchi va mehribon zotdir.*

*Kim bilsin, balki shu bugun duo qilsang qabul bo'lar.*

**\***

Duo qil va kaftlaringdan duoni aritma, ammo qiyin damlaringda emas, balki umring davomida chin dildan duo qil. Duolaringni chin dildan va sabr bilan qil.

Mo'jizaga ishon.

Vaqt kelib duolaring qabul bo'lib – tilaganlaring ijobat bo'lganiga guvoh bo'lasan va mayin ovozda Alhamdulillah deb shivirlaysan, chunki hech bir duo ortga qaytarilmas.

Albatta, duo kuchiga ishon, qilgan duom qabul bo'lmaydi deb o'ylama.

Duong qabul bo'lishi uchun nimalar qildim deb hech o'yladingmi?

Kerakli choralarni ko'rdingmi?

Avval kerakli choralarni xatosiz bajar, duoda samimiy bo'l.

Chin dildan ixlos ila to'liq taxoratda duo qil, yo'qsa duolaring qabul bo'lmay qolishi mumkin.

Qo'lingdan keladi! Bo'sh qolma, duo qil!

Ko'nglingdagi orzu-istaklaring barcha-barchasini kaftingdagi duoda so'ra.

Kuni kelib duolaring qabul bo'lganida cheksiz shukur qilasan.

G'ayrating oshib, mehnating mevasini ko'rganingda duo kuchini sezasan

Sen faqat duo qilsang bas.

Duolaringni qaytarmay ijobat qilguvchi Rabbingga ibodat qilsang bas.

Duosiz qalb – sahroga o'xshaydi.

Duosiz dil esa suvsiz favvoraga.

Duosiz kaftlar qurib qolgani kabi duo uchun to'kilmagan ko'z yoshlar ma'nosini yo'qotadi

Duo qilmagan ko'ngil qurib qolgan gul kabidir.

**Shuning uchun ibodat va duo muhimdir.**

**Sen zaif, umidsiz va ilojsiz emassan.**

**Kaftlaringni och duoga!**

**Sabr qil!**

**Shukur qilishdan va zikr aytishdan**

**hech ham charchama!**

**Unutma, Alloh hech bir g'amni abadiy qilmas.**



*Oila qur.  
Nikohing abadiy va xayrli bo'lsin. Yuzing quvnasin  
nikohingdan.*

*Hayotingda erishayotgan yutuqlaringni ko'ra olmaydigan insonlar ham uchraydi.*


*Sen yutganing sari alamlari keladi, yo'lingga to'g'anoq bo'lib har xil yo'llar bilan xalqit berishga harakat qilishadi.*

*E'tibor berma. Unut!*

*Sen o'z yo'lingda davom et, saviyasi past, so'zining salmog'i yo'q insonlarga e'tibor berma.*

*Sen sabrli va irodali bo'l.*

*Alloh hamisha yaxshi insonlar bilan birga.*



39

**Hayoting davomida yashab  
o'tkazganlaringga achinma.  
Bular senga tajriba va iroda keltiradi.  
Kuchli bo'l va hamisha  
baxtli bo'lishga intil.**

\*

Hayotingni yangidan boshla, yangi sahifa och.  
Keraksiz bo'lgan damlarni hayot sahifasidan  
o'chirib yubor.

Sahifalar bu sening hayoting – uni rang-barang,  
qiziqarli damlarga boyitgin. Yomonlikdan yiroq  
yur, qalbing doimo umidga to'la bo'lsin.

Seni ranjitgan va qalbingga ozor berib ko'z yosh  
to'ktirganlarni hayotingdan chiqar.

Yangi unutilmas xotiralar bilan boyit hayotingni.

Qani bo'la qol!

O'zingni, fikrlaring, qarashlaringni yangila va  
kelajakka yangi eshik och.



*Yangilan!*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## YANGILANIB GO'ZALLASHASAN

*Hayot go'zaldir. Balki sen ayni damda yaxshi holatda emasdirsan, balki hayotingda ketma-ket yomonliklar sodir bo'layotgandir, lekin ishon, hayot yaxshi insonlarga to'la.*

*Ishon, hayotda doim xotimalar yaxshilik bilan yakun topadi, chunki go'zal xotima, go'zal boshlanishni bildiradi.*

*Ehtimol sen bu go'zal boshlanishni boshdan kechirmagandirsan, biroq kim biladi, balki Sen go'zal boshlanishga juda yaqindirsan.*

\*

To'xta va bir oz fikrla. Bir xonaga kirib yaxshilab o'yla. O'zingni ranjitib, hech bir yaxshilikka erisha olmasliging va hech narsani o'zgartira olmasliging haqida o'yla. O'tmish bilan yashash kelajakda yaxshi yashashingga xalaqit beradi.

To'xta va yaxshilab firvla. Yaxshilab o'ylab, tushunishga harakat qil. Qalbingni qayg'uga to'ldirib yangi hayot boshlay olmassan. Yuzingdagi qayg'u alomatlari bilan hayotingni davom ettira olmaysan. Bu yo'l bilan hayotingdan ketganlarni na qaytara olasan va na xayolingdan chiqara olasan. Shuning uchun ularni o'tmishda qoldirib kelajakga olg'a qadam bos. Bas o'zingni qo'lga ol, o'tmish xotiralari bilan yashama.

Hayotingdagi qayg'u va iztirob, xavotir va ishonchsizlik, baxtsizlik kabi yomonliklardan voz kech, ularni tark et.

Yaxshilikka intilib yasha.

Hayotingga yanglish kirganlardan voz kech va o'zingga munosiblari bilan olg'a qadam bos.

Ozing uchun yangi sahifa och. Bu sahifadan o'tmishni o'chirib, kelajak uchun yangi rejalar tuz va yangi damlar sari yo'l olginki, bu onlardan go'zal xotiralar qolsin.

Yangi tanishlar orttirib, ongingni yangi fikrlar va g'oyalar bilan boyit. Sayohat qil, yangi joylarni kashf et. O'zgacha muhabbatni izla va go'zal manzaralar va suratlariga boq. Yangi xayollar va orzular qil. O'zing uchun hayotning yangi eshiklarini och.

Har bir narsang yangi bo'lsin. O'zgarma, biroq yangilan, ya'ni yangi bir hayotga qadam qo'y. Hayottingda har bir narsani yangilab oldinga qadam bos.

O'tmishda qolib azob chekkandan ko'ra, o'z ustingda ishlab, kelajak uchun yangilan.

Unutma!

Hayoting bo'm-bo'sh, keraksiz bir qog'oz emas. Uni g'ijimlab uloqtirish oson emas. Seni xafa qilib yarim yo'lda tashlab ketganlarni, ustingdan kulib qalbingga ozor berganlarni hayotingdan chiqarib tashla. Oqibati nima bo'ladi deb qo'rqma, hayot sahifangdan o'chirilgan insonlar o'rnini, albatta, yangilari to'ldiradi. Bas, hayotni bir qalamni ushlaganing kabi qo'lga ol.

**Harakatda barokat – go'zal kelajak yaratishing uchun harakat qilmog'ing darkor. O'tmishdagi**



**muammolardan olishing kerak bo'lgan darsni  
olsang, muammolar yechim topadi. Orzularingni  
chin dildan duolaringda so'rasang, albatta,  
ijobatiga erishasan. Ishon, nima bo'lishidan qat'i  
nazar hayot hali ham go'zal.**

**Agar xatolar, yomon damlar, armonlarni xayolla-  
ringdan chiqarib tashlasang, yaxshiliklarga eshik  
ochgan bo'lasan.**

40

**Agar hayoting yaxshi tomonga o'zgarishini  
istasang, solih amallar qil. Go'zal onlarga  
yetishishni istasang, to'g'ri yo'ldan yur.**

\*

Yaxshiliklar ko'paysin. Quyosh nurlarini yerga  
sochayotgani kabi yaxshilik urug'lari yerga sochilsin.

Qirda ochilgan gullar misoli yaxshiliklar ko'paysin  
dunyoda. Ko'm-ko'k osmon kabi inson qalbi ham toza  
bo'lsin.

Dunyo sevgan va sevilgan insonlarga to'lsin.

Dunyoni go'dakni kulgisi tutsin.



*Go'zal yashashni odat qil.*

**BARCHASI SENGA ATALGAN.**

## **SOLIH AMALLAR QILAYLIK**

*Ey Rabbim!*

*Osmonni quyosh bilan isitgan, kechani oy va yulduzlar bilan bezagan Rabbim. Qalbimga xotirjamlik, tilimga shukuronalik, nigohlarimga odob, firklarimga go'zallik baxsh etgin.*

**\***

Yorqin hodisalar ko'p bo'lsin, hayotimizni quvonchga to'ldirsin, bunday hodisalar sodir bo'lsin, nega bo'lmasinki?

Atrofimizni hamisha go'zalliklar o'rab tursin, har bir insonga yetarli va birovning quvonchiga hasad qilmaydigan darajada ko'p bo'lsin baxtli damlar hayotimizda.

Birov birovni diliga ozor yetkazmasin, chehralar mahzun bo'lmasin, hamisha sevinchdan chehralar nur taratsin, yanoqlar baxtdan qizarsin va kulgichlar yuzlardan ketmasin, insonlar sur'atida baxtni ifodalasin.

Hayot hamisha bir tekis kechmaydi, tabiiyki insonlar qiyin damlarida yig'laydilar- bu odatiy hol, ammo yig'laganlari bilan nigohlarining uchquni – porlashi ketmasin.

Baxtdan ko'zlari porlasin, birov-birovning ko'ngliga ozor yetkazmasin.

Yig'lasin, ammo ular quvonch yoshlari bo'lsin.

Go'zal-go'zal suhbatlar qurilsin.

Zabonlaridan g'iybat emas, dilga xush yoquvchi kalimalar chiqsin.

Insonlar sir saqlay olishsin va birovlariga sirlarni oshkor qilmasin.

Shundagina odamlarning bir-biriga ishonchi ortadi, yaxshi hodisalar ko'p bo'lsin.

Insonlar hamisha yangi ochilgan g'uncha misoli go'zal va ishtiyqli bo'lsin hamda yashashga bo'lgan shiddati hech ham so'nmasin.

Go'zal gulga qo'ngan bulbul misoli ko'ngillar ham birlashsin.

Insonlar o'z maqsadi va baxtiga erishsinlar.

Qo'lni qo'lga berib hayotni yaxshi tomonga o'zgartir, insonlar bir-biriga ko'maklashsinlar. Aslo bir-birlarini ayblab, mo'jiza ro'y berishini kutmasinlar.

Boshqa yaxshiliklar sodir bo'lmaydi, dema hali hayot oldinda – nima sodir bo'lishini bilmaydi inson. Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'i bo'lgani kabi hodisalar ham shunday. Yaxshi damlar hali oldinda. Sen faqat ibodat, sabr va harakat qilsang bas.

**Kech bo'lganida ko'zlaringni yumar ekansan,  
yomon narsalarni xayolingga keltirma.  
Yaxshisi, yaxshi narsalarni xayol qil, biroz jilmay va  
qalbingdagi istaklaringni duolaringda so'ra.  
Chin dildan duo qil va shirin xayol surib uxla.  
Mana ko'rasan, tushlaringda orzularing ro'yobini  
ko'rasan va tushing o'ngidan kelishi ham hech gap  
emas, chunki hech bir harakat natijasiz qolmas.**



*Sayohat qil!  
Hayotdan zavq ol.  
Ammo o'zingni xor qilmasdan,  
haromdan yiroqdā yasha.  
Hamisha jilmay.  
Baxtli onlaringdan rohatlan.  
Lekin oxiratingni o'ylab pok nomingga dog'  
tushirmasdan zavqlan*



*Har bir qiyinchilikdan so'ng bir  
yaxshilik keladi.*

*Qora kunlaringni quyosh yoritadi.*

*Zulmatda yulduzlar charaqlaydi, oy esa kechani  
toji bo'lib yoritadi.*

*Zulmat ichra porloq oy chiqib, yorug' kunlaring hali  
oldinda deb xabar beradi go'yo.*



*Jilmay!*

*Ko'z yoshi to'kkaningga arzimaydi.  
Boshqalar uchun siqilib, yig'lab va joningni  
og'ritganingga arzimas.*

*Bari o'tib ketmaydi dema.*

*Vaqt oliy hakam, qanday hodisa bo'lmasin barchasi  
ortda qoladi. Bas, o'zingni qurbon qilma.*

*Atrofga boq!*

*Bahor keldi, azoblar ortda qolib, go'zal gullar  
ochilmoqda. Quyosh issiq nurlari bilan atrofni isitib,  
qushlar shoxdan-shoxga sakrab sayrayapti.*

*Sen esa kul, go'zal yuzingga bir go'zallik taqdim et.*

*Kulginki, hayotda gullar ochilsin.*

**Sayohat qil, dunyo aylan.  
O'zing uchun yangi joylarni kashf qil.  
Dunyoqarashingni kengaytir.  
Hayotdan to'liq zavq ol!**

**To'g'ri yo'ldan yur va halol bo'l.  
Unutma!**

**BARCHASI SENGATALGAN!**



*Barchasi Senga  
Atalgan!*

ERDOG'AN YILDIRIM

*“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiya yozuvchisi bilan tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning oldi muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi vosita – gologramma bo‘lmasa, demak bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob sovg‘a qilamiz.*

**Tarjimon** *A. Saidxonova*  
**Bosh muharrir** *M. Nishonboyeva*  
**Dizayner rassom** *D. Rahimov*  
**Musahhih** *A. Yunusov*  
**Kompyuterda sahifalovchi** *Sh. Axrorova*

**Nashriyot litsenziya AA № 2549. 28.03.2022**

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko‘chasi, 44A-yū

Bosishga ruxsat etildi: 18.02.2023. Bichimi: 84×108  $\frac{1}{32}$ .

Ofset bosma. «Cambria» garniturası.

Bosma tabog‘i: 11. Adadi: 3000. Buyurtma: 23-02

**“Dizayn-Print“ MChJ O‘IChK** bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 100054. Toshkent shahar,  
Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

**“Xasanov Farxod“ YTTda** muqovalandi.

Manzil: 100054. Toshkent shahar,  
Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

Ўзинга  
меҳр ила



Ўзинга  
меҳр ила  
қалбига  
қалбига

Ольга  
Примаченко

GO'KAN KINSUN



Taslim Bo'lma  
Mo'jizalar  
Oldidan

Beyhan Budak

Baxtni  
Yo'qotgan  
Joyda  
Izlamang

*Kuchsiz emasiz shunchaki insonsiz!  
Tan olib kuchga to'lish uchun hayot saboqlari*



MY BOOK UZ

40300C

# BARCHASI SENGA ATALGAN

## HAMMA NARSA SEN UCHUN KITOBDIR, DARSDIR

Bu hayotda boshdan o'tkazganlarningning barchasi sen uchun darsdir. Hech narsa uchun kech bo'lgani yo'q. Nima bo'lganda ham sen o'zingga kech qolma, o'tmishda yashama. Hayotingda yangi bir sahifa och. Umringga yangi bir boshlanma tuhfa et...

Keyin esa o'zgarmaydigan bedavo narsalarni hayot sahifangdan birma-bir o'chirib tashla. Hayotingni rangorang onlar bilan bo'ya. Tushkunlik, umidsizlik yukini yelkangdan uloqtir. Yuragingda umidga joy bo'shat. Orzularingni fikrlaring bilan uyg'unlashtir. Ko'nglingni og'ritgan, senga yomonlik tilaydigan, yaxshilik tomon yurmaydigan kimsalarning ustini qalin chiziqlar bilan chizib tashla (Ular bilan aloqani uz). Ko'z yoshlaring daryodek oqishiga sabab bo'lganlarni ko'ngling qatlaridan chiqarib tashla. O'zingga yangi va yoqimli onlar hadya qil.

Qani bo'li!

Yangi bir boshlanma insho et!

Yangilan!

Yangila o'zingni!

Hayotingda yangi bir sahifa och.

Ertanggi kuningga yangi imkoniyatlar eshigini och.

Yangilan va ahvolingni ijobiy tomonga o'zgartir.



MY BOOK UZ



ISBN 978-9943-8604-8-3



9 789943 860483